

SONGUL UNSAL

Yaralangan
joyingizdan
gullaysiz



TOSHKENT - 2023

*„BEST-BOOK“ nashriyoti ushbu kitobni Turkiylik
yozuvchi So‘ngul Unsal ruxsati bilan 2022-yil 3-yanvarda
tuzilgan shartnoma asosida chop etdi. Agar kitobning
oldi muqovasida qalbakilashtirishdan himoyalovchi
vosita hologramma bo‘lmasa, demak, bu kitob qalbaki.
Darhol +99 871 200-98-99 telefon raqamiga qo‘ng‘iroq
qilishingizni iltimos qilamiz! Buning uchun sizdan
benihoya minnatdor bo‘lamiz va sizga kitob
sovg‘a qilamiz.*

UO‘K: 821.512.161-3

KBK: 84(5Turk)

U 53

So‘ngul Unsal

**Yaralangan joyingizdan gullaysiz [Matn] / So‘ngul Unsal –
Toshkent: BEST-BOOK, 2023 – 128 b.**

ISBN 978-9943-9278-0-3

© So‘ngul Unsal

© «Olimpos» yayinlari &

«Akdem Telif Haklari ve Tercüme» ajansi.

© «BEST-BOOK», nashriyoti 2023

**Rahmon va Rahiyim bo'lmish
Alloh nomi ila...**



Sevgi shifodir.

Sevgi kuchdir.

Sevgi o'zgarishning muhridir.

Hazrati Mavlono



Onamga...

Ushbu kunlarda albomim zarvaraqlari orasida navbatma-navbat tikilib qolayotgan xotiralarim qalbimning bezagiga aylandilar. Tinglaganimda ichida siz tilga olingan qo'shiqlar, o'qiganimda sizga oid, bizga oid bir nimir topgan she'rlarim va yana ko'plab narsalar bor edi. Ko'pincha ba'zi qo'shiqlarning hatto grammofon plastinkalari ichida yillar mobaynida saqlana oladigan kuchni topa olishlaridan ham umidlanaman. Oldinlari ijtimoiy muammolardan hatto ora-siradagi hissiy jarliklarimdan ham kelgan bu kunlarga, biror narsalarga umid bog'lamaslik odatim bor edi. Holbuki, men ilk marotaba umid qilishni sizdan o'rgandim! Bilasiz, men doim shunday edim, bir nimalarni bahona qilib hayotga tutinish bilan mashg'ul edim. Doim o'zimni chalg'itadigan, meni charchatadigan bir nimalarni topar edim. Qo'llarim shilinib ketgunigacha o'zimni ayamas edim. Oyim doim shu tomondan meni bag'rige bosdi. Negadir shu yoshimgacha oyim hayotimda doim haq bo'lib chiqish bilan band edi. „Biror narsani uddalaganingda yanada ko'proq dushmaning bo'ladi“, derdi, hech adashmadi.

„Boshingni egmaguningcha hayotda qolasan, chunki bir marotaba yiqilsang hamma ustingdan bosib o'tib ketadi“, derdi. Ilk qoqilishimda anglab yetib, o'zimni

o'nglab oldim. Oyimning har bir kalimasi yillar mobaynida qalbimning bir tarafida takrorlanib turibdi. Hayotga tutinish bilan haq bo'lish orasidagi yagona bog'im shudir.

Va uning ovoz toni yillar davomida hech narsaga qaramay, chap tarafimda hech shikastlanmasdan saqlanib turibdi. Qachonki uni sog'insam, oyim doim chap tarafimda. Uning ovozidan hayotimning sehri vujudga keldi.

***Onam, yaralangan joyimdan gullar
undirgan bиринчи устозим.***

Onam, qalbimning eng totli ma'sum bezagi...

**Hayotning oyog'idan chalayotgan har
bir mavhumlik bahonalarning ortiga
sig'inayotganimiz va parvo qilmayotganimiz
uchun bizni oqsatyapti.**

Yiqilamiz. Yiqilgan joyimizdan turishga majolimiz qolmaydi. Yechimni topish uchun ustimizga cho'kkан har bir erinchoqlik, qalbimizga xafagarchilik bo'lib bityapti. Charchayapmiz. Charchatyapmiz. Keyin esa hayotimiz xafa va o'zidan to'yan, doim takrorlanib tura-digan, ranjigan bir ritmdan iborat bo'lib qolyapti. Qalbingizda his qilganlaringiz va zehningizda unutolma-ganlaringiz orasida qolish, inson bolasini oqsatayot-gan eng murakkab urishlardandir. Ko'p bilish, ko'p toplash, ko'p chuqurlashtirish insonni holdan toydi-radi. **Bu bir taraflama harakat. Inson nega o'zini bu qa-dar ko'p charchatadi?**

Holbuki, boshimizga kelgan hech narsa shunchaki sodir bo'lmaydi. Dardlar tasodifan boshimizga kelmay-di yoki bo'lmasa azoblarimiz „Ketayotgandim, yo'lда duch keldim“, demaydi. Barchasi bir ogohlantirish, bar-chasi bir ishorat vassalom. Bu ishoratlarni ko'ra bilish uchun naqadar harakat qilyapmiz?

Qarshimizga chiqqan ba'zi voqealarda harakatga tushmasdan avval biroz sabr qilsak, biroz kutsak, ya-

na biroz o'ylasak hamma narsa tinchiganida o'z iziga tushadi. Kutganimizga arziydi. Bu aytilishi oson, bajarilishi qiyin, ammo shu qadar tinchlantiruvchi bir sayohat. O'zingizga kelishingiz, yaralangan joyingizdan yangidan gullay olishingiz uchun tatbiq qilinadigan ajoyib bir sayohat.

Albatta, bu so'zlarim behurmatlikka, ishonchsizlikka, nonko'rlikka qaratilmagan. Naqadar sevgan bo'l-sangiz ham joyi kelganda voz kechishni ham bilish kerak. „Hech narsa o'zligingizdan muhim emas“ jumla-si klishe (takrorlanaveradigan so'z) emas. Albatta, og'ir sinovlar boshingizdan o'tishini kutmasdan buni o'zlashtirishingiz kerak. Bu jumla beg'amlikka, suv bossa to'pig'iga chiqmaslikka da'vat ham emas. „Men-ga men yetaman, boshqa hech kim bilan ishim yo'q“ jumlasining ortiga berkinmang. Haqiqiy klishe aslida shu: „Hech narsa sizdan muhim emas“. Ko'pincha bu qayta tuzilish, shakllantirilish va g'amxorlikni o'zida mujassamlashtirgan, shunga shama qilgan ma'nolarda ishlatalidi. „O'zingizni seving. Chunki sevgi davolaydi“, demakdir.

Boshqalarni sevish, o'zini sevish bilan boshlanmaydim? O'zini sevmagan qanday qilib qushlarni, qurt-qumursqalarni, insonlarni va boshqalarni sevishi mumkin? Shunday insonlar borki, ular bir mushukka sig'inib, undan bir insonga nisbatan tasallini qidiradi. Oxir oqibat, o'zini sevmagan insonning boshqa barcha narsaga bo'lgan sevgisining zamirida aslida, „Meni sev, meni o'zimga sevdir, meni chiroyli sevki, o'zimni o'zgacha his qilib, o'zligimga bo'lgan urushimga yakun yasay“, degan ma'no yotganini tushunib yetadi.

Insonlardan yaxshi narsalarni kutish, yaxshiliklarning Allohdan kelishini unuttiradi.

Biz eng boshidayoq o'zimizni seva olsak, borimizcha o'sha holimizni qabul qila olsak o'zgarish boshlanadi, biroq ko'pincha dangasalik barcha a'zolarimizni karaxt qilib qo'yadi. Qilishimiz kerak bo'lganlari esa; haddimizni bilmоqliк, o'zligimizni anglamoqliк, tanishmoq, sevmoq, boshimizga tushganlarni sabr bilan kutib olmoqlikdir. Inson boshiga nimalar kelmaydi deysiz? Tirikchilik dardi, sevgi azobi, o'lim qayg'usi, yo'-qotishning, umid qilishning charchog'i. Hamma narsa, mutlaqo hammasi biz inson bolasi uchun bitmaydigan bir imtihondan iborat.

Bitta xonada stulda soatlab o'tirgancha ichini hech to'ldira olmagan daftarni qoralab, o'rnimizdan turib bir stakan suvni ham olishga eringan bir ritmga o'zimizni kishanlayapmiz.

Yaxshi narsalarning insonlardan kelishi uchun, avval, biz insonlarga yaxshilikni tortiq qilishimiz kerak emasmi? Tortiq qilganga, ortig'i bilan qilingan ikromdan nasiba olishimiz uchun o'sha stuldan turishi-miz lozim. Ko'chaga chiqib tanimagan insoningizning biriga tabassum bilan salom berish ham javobi chi-

royli bo'lgan bir ga'labadir. Siz buni oddiygina qilib salomlashish deb ataysiz, ammo Rabbingiz buni hush-nudlik deydi va sizga imkoniyatlar yo'llaydi. Siz kutmagan bir onda jiringlagan telefon ortidagi ovoz sizni naqadar sog'inganini tilga oladi. Butun erinchoqligingiz ketadi, o'rnini kuch-quvvat to'ldiradi. Balki borib, taxlanmagan o'sha kirlarni taxlagingiz yoxud yecholmagan testlaringizni yechishga g'ayratingiz jo'shib, harakatga tushishingizga sabab bo'ladi.

Harakatlarga va masalalarga ko'ra hayot shakllanadi, ha biroq eng ko'p sevish usulimizga ko'ra shakllanishi kerak emasmi? Biz xursand bo'lgan yohud bo'la olmagan millionlab onning quvvati natijasida „biz“ bo'lamiz. Biz xohlasak ham, xohlamasak ham hayot oldimizga vaqtı-vaqtı bilan turli-tuman qiyinchiliklarni tortiq qiladi. Bizning bu muammolarni qanday yechishimiz ham yo'limizni shakllantirgan muhim bir g'abaladir. Oxir oqibat, sevgi bilan yengilgan har bir vaziyat qarshisida yurakdagı yukimiz yengillashib oydinlikka yetishamiz. „Qiyinchiliklarni sevgi bilan yengish“ – aytilishi safsata bo'lib tuyilsa ham, bundan boshqa chiqish yo'limiz yo'q. Chunki dardimizni yengishimiz uchun ham dard berganni sevamiz.

„Allohim sen menga bir dard berding, lekin men bu dardni sening yordamingsiz yenga olmayman. Menga bu dard bilan kurashadigan kuchni va yo'llarni o'rgat“, degan onimizda o'sha masala ertami kech yechiladi deb hisoblang.

Dardni yoqtirmaslikni qo'ying. Kuchingiz yetmaydigandek tuyilsa-da, Xudo ko'rsatmasin dardni la'nat bilan, g'azab va stressda qarshilab, ko'pgina bo'lma-g'ur so'zlar bilan kutib olsangiz: Alloh bergen dardiga

sabr qilmaydiganga yanada og'ir dard beradi. Agar ta'-biri joiz bo'lsa, o'zimizni uddasidan chiqolmaydigan dardlar silsilasi ichida topamiz.

Sevgi davolaydi. Agar biz istasak, sevgi haqiqatdan ham hamma narsani davolaydi. Dard berganni seving, dardingiz malham topadi; tabiatni seving, tabiat sizga mo'jizalar bilan tabassum qiladi; insonlarni seving, sevgi hayotimizga oid insonlar orasida hurmat va iz-zatdek muhim ahamiyatga ega bo'lgan narsalarga erishishimizga yordam beradi. Aynan o'sha vaqt „Yaralangan joyingizdan gullaysiz“. Shu sababli seving. Seving va shifo toping. Uddasidan chiga olmagan har bir dardimiz ortida yotgan go'zalliklarning ne'matlariga sevgi bilan erishing.

***Chunki bu hayotni faqat sevgi davolaydi
va insonlarni sevgi qutqaradi.***



Qiyin vaziyatga tushib qolganimda voz kechishni xohlagan juda ko'p narsam borki... O'zimni yomon his qilganimda hol-ahvol so'raydigan hech kim yo'qligi meni biroz ranjitdi. Yuraging siqilganida holingni so'raydigan hech kimning yo'qligi... Bir tom ostidagi to'rt devor har doim ham uy bo'savermas ekan, inson kreslosida o'tirib ham uysiz ekanligini his qila oladi. „Holbuki men doim ularning yonida edim“, dedim o'z o'zimga. Yiqilganlarida turg'iza olmasam ham yonlariiga yotib oldim, masalan. Balki bunga javob kutish dersiz, lekin men eng ko'p bajarilmaganlariga diqqat qilaman. Yaxshi insonmanmi yoki ahmoqmi? Bismayman... Chunki men sevganlarim uchun qo'simdan kelganini bajardim. Yomon bir inson, qalbiga dog'lар tushgan bir inson bo'lishni istamayman, shuning uchun voz kechypman. Ortiq men ko'rмаганликка oлган har bir xatoning ko'zlarimda yosh bo'lishiga ruxsat berishni xohlamayman.

Kech qolgan fikrlarni samimiy deb hisoblamayman...





*Birgina singan soat ham
oldinga qarab harakatlanish uchun
kurashyapti.*

Nima uchun siz o'tmishning dardidasiz?



Inson ba'zi kitoblarda o'zining burilish nuqtalari bor ekanligini kashf qiladi.

Yuzingizga solingan o'sha jumla barmoqlaringiz uchidan tomirlaringizga va u yerdan ruhingizga sizib kirayotganini his qilasiz. Ba'zi vaqtlarda sizni qo'lingizdan tutib turg'azgan o'sha jumlalar bo'ladi. Mening yuzimga esa: „Qara ikki oyog'im uzildi, lekin kurashish uchun hali ikki qo'lim bor“ jumlesi bir tarsaki tushurgandi.

Bir paytlar Edip xonim, kechaning bir vaqtida yuzimni o'sha sahifaga ko'mib yuborgandi. Olovdan ko'y-lak, koshki kitobning nomi bo'lib qolsaydi dedim, o'sha kecha. Mavzu nima ekanligi muhim emas aslida. Muhi-mi, sizning o'sha jumlanı olib hayotingizning qayeriga yamoq qilishingiz. Bu jumla adashishni xohlamay chiq-qan yo'llarimning shifosi edi. Adashmasam, yiqilmasam va xato qilmasam, birinchi to'siqda mutlaqo ichimga noumidlik tushardi. Hayotimning har jabhaisida mana shu jumlanı quchib yurdim. Men uddasidan chiqa olmagan har bir to'siqda qo'limdan tutgan o'sha jumla edi. Har bir insonning bag'riga bosadigan bir jumlesi bo'lishi kerak, chunki har doim ham qo'lingizdan tutadigan insonga duch kelavermaysiz. Borim bilan kurashishga tayyorman. Bu dunyo bir olovdan ko'y-lak! Ikki oyog'im uzilgan bo'lsa yana ikki qo'lim

bordir, ular ham sinsa so'zlarim bilan yaralarim qal-
bingizning qoq o'rtasida yashashda davom etadi.

Dunyoga sovg'a qilmoqchi bo'lgan jumlalarim ham
bor, albatta. Hech kimga suyanmasdan yashashga maj-
bur ekanligimizni eslatadigan, hatto buni aqlimizga
mixdek qoqib qo'yan jumlalar... Ammo men eng ko'p
sizlarga shu jumlalarni hadya qilmoqchiman. „O'z ha-
qiqatingizni faqat o'zingiz topa olasiz, agar siz yo'li-
ngiz shu yerda tugadi deb o'ylayotgan bo'lsangiz, de-
mak siz haqiqat bilan hanuz qarshilashmadingiz. Yara-
langan joyingizdan gullahshi hanuz kashf qilmadingiz”.

Hislariningizni aslo his qilganingizdek ta'riflay olol-
maysiz. Chunki tuyg'ular bir kishilikdir. Har qanday
narsa haqida his qilgan bir tuyg'ungizni qay daraja
his qilganingizni yolg'izgina siz bilasiz. Shu sababli o'z
haqiqatingizni yolg'izgina o'zingiz topa olasiz. Aytdim-
ku, har kitobning ichida mutlaqo insonning qo'lidan
tutib turg'azadigan bir jumla bo'ladi. Eng muhimi, qo'-
lingizdan tutadigan narsani qayerdan qidirishingizga
bog'liq. Sahifalarni diqqat bilan o'qing. Ko'nglingizga
va umringizga shifo bo'lsin.

**Har bir insonning o'zini ishga
yaramaydigandek
his qiladigan davrlari bo'ladi.**

Qachonki o'zimni ishga yaramaydigandek his qilsam, o'z ichimga ko'milaman. Chunki bilaman inson qalbida yashirganlarini bir nimalarga yoki birilariga to'kib-sochsa, o'zini qo'lga olar ekan. Ichimda qayerlardadir menga aql o'rgatgan eski tajribalarim yuragimga yordam beradi. Zotan insonni eng yaxshi tushunadigan o'zi emasmi? Boshqa birovga ichimizni to'kayotganimizda ham asl hislarimizni, hukmlarimizni ayblov qo'rquvi tufayli berkitamiz...

Ich-ichimda qayerlardadir men tarjima qila olmagan har bir jumla meni kundan kunga chuqurlik tomon tortdi. Ichimda, men ichidan chiqa olmagan har bir masala meni boshqa bir insonga aylantirdi. O'zgaranimni o'ylab o'zimni juda ko'p muhokama qildim va ulg'ayish mana shunday narsa ekanligini tushunib yetdim. Bir muddat o'tib ko'rmoq, tushunmoq, sevmoq insonga boshqacha tuyiladi.

Xohlasangiz ham oldingi holingizga qayta olmaydigan vaqtlarining bo'ladi. Hatto oldinlari chekkan azoblariningizni ham sog'inasiz. Shu sababli nimani boshdan kechirsangiz, har vaqtning qadrini o'sha on-

dayoq biling. Hayotingizni bir lahzaga sig'diring. Lahzaning qadriga yetsangiz, ertalar uchun tayyorgarlik qilgan bo'lasiz. Kuch olasiz. Undan yaxshi foydalanish esa keljakka eng yaxshi sarmoyadir.

Qalbimni silab ketgan narsalardan birgina chang qoldi. Va men chang ichida qolmaslik uchun tirishib harakat qildim. Chunki yaxshi insonlar oxir oqibat g'alaba qozonadilar. Balki yutayotganingizda ko'p narsani qo'lidan boy berarsiz, biroq bu zafar nishonlashga arziydi. Insonga omad har doim ham kelavermaydi. Boshqa insonlarning barmog'ini ham shaqillatmasidan qo'lga kiritganlari uchun vaqtি kelsa siz umringizni berasiz. Ammo unutmang, ba'zilar uchun osonlikcha berilgan narsalarining sinov ekanligini fahmlay olishlari uchun juda ko'p vaqt kerak bo'ladi. Ba'zan borliqning imtihon ekanligini hech tushunib yetishmaydi. Lekin siz to'qlikda ham dunyoning sinovdan iborat ekanligini biling; siz kurashgan narsalar eshigizingizni, qalbingizni chertishsa o'tmishingiz va kelajagingizinga noshukurlik qilmang. Har doim kurashgan, kuchga to'lgan o'zingizni eslang va uni qattiq quching. Va qachonki hayot do'ngalagida qoqilsangiz yugurib borib o'sha „men"ingizni quching. U sizni davolaydi.



Ba'zan hayotning siz uchun yopgan eshiklarini qiyash kerak emas. Qiynash charchashdir. Ochilmasligini bila turib bir eshikni qiyash butun quvvatingizni yutib yuboradi. Sizni tugatadi. „Bekorga urinyapsan“ degan his insonni kundan kunga zaiflashtiradi. O'sha eshikdan voz kechib qo'ya qoling.



*Ko'p vaqtarda o'zimni yomondek his qilaman, biroq men
qalblariga yaxshilik urug'ini sochgan insonlarim kun
kelib albatta, menga qaytadan sevgi urug'ini sochadi.
Bilasizmi o'zimni qattiqroq sevib boryapman? Og'rinih,
kamayayotganim sari ko'payayapman aslida. Mening
boshimga qayg'u solgan insonlardan minnatdorman. Siz
bo'l maganiningizda men, hozirgi men bo'l olmasdim.*

Uzoqlarga ketishni xohlaganlar, odatda, yaqinlardan uzoq qolganlardir.

Inson sevganidan uzoqda qolganida o'ziga yaqin bo'lishni xohlamaydi. Vaqt o'tgan sari o'zingizdan bir-ma-bir uzoqlashasiz. Juda ko'p yo'qolib qolishni xohladim. Holbuki, eng ko'p meni kashf qilishlarini istagandim. Topilib, birozgina sevilishni. Hayot insonga ehtiyoji borini bermas ekan, uning mehnat qilishini kutar ekan. Ba'zan ruhingizni parcha-parcha qilib hayotga berishingiz kerak, qarshi chiqqanda undan biroz xursandchilik olish uchun.

Uzoqlarga ketish yechim emas bilaman. Avvalo, men bo'g'zimdagi tugmalarni yechishim kerak. Men avval o'zimni kashf qilishim kerak. Nima xohlaganimni bilmagan o'sha qorong'i kechalardaman. Har insonning eng uzun kechasi boshqacha bo'lar ekan. Buning fasl-larga hech qanday aloqasi yo'q ekan, avgustda ham eting jimirlar ekan. O'tib ketmagan qayg'ular tunning o'tishiga yo'l qo'ymas ekan.

*Qachonki men ketishni istasam, doim
o'zimga kelishni xohladim. Hech kim bilmadi...
Lekin men eng ko'p o'z ichimda yo'qoldim.*

Va yana juda ko'p narsa

Hayotimiz oldidan oqib o'tayotgan irmoqlarda oqib ketyapmiz. Vaqt bir shaklda o'tayotgan bo'lsa-da, yaxshi-yomon kunlarimizdan uzila olmay ortimizga qara-shimiz kelajakka doir nimani o'zgartira oladi? Mana shu dunyoda bir shaklda hayotda qoladigan kichik umidni qucha olayotgan bo'lsak, bu hayotni ehtimollar qo'liga topshirishni xohlamayotganimiz uchundir. Ni-ma uchun biz ehtimollarga yengilshimiz kerak? Katta orzular ila bu kunlarga keltirgan ichimizdag'i bolalar-ga beradigan bir necha hisobimiz bor. G'ururi borlar bo'lsa, o'sha bolalarning qarshisiga chiqib „Uddalay ol-madim!“ desin. Barchasiga qaramasdan uddalaymiz, sevgining ham hayotning ham va o'zimizga bergan so'z, nimaiki bo'lsa eng yaxshisidan, ko'zlarimizni yu-mib uning qo'llariga topshiramiz. Hamma narsaning eng yaxshisiga loyiq bo'lganlardan qayerimiz kam? Bari umidni yo'qotishdan boshlanadi. Balki, biz hech o'qimagan sahifalardadir bizga o'sha hayot qat'iyatini beradigan tuyg'u. Biz hech yashamagan kunlardadir balki, bizni qutqaradigan narsalar. Biz hech yurmagan yo'lning naqadar qisqa ekanligini yoki biz hech tot-magan narsalar bizga naqadar ta'sir qilishini va yana ko'pgina narsalarni bila olamizmi?

Bu hayot ko'pgina narsalarga qaramay, hatto hech narsaga qaramay yashashdir.

Go'zalliklar bilan uchrashuv birdaniga yuz bermaydi, yo'lning oxirida barcha zARBALARDAN o'tGANINGIZNI eslaysiz. Hayot deganlari aynan mana shu zARBALARGA qaramay yashashdir. Hech narsaga qaramay, shu kUNLARGA yetib kelgandirsiz. Hech narsaga qaramay orzu qilgan narsaga erishgandirsiz. Juda sevgan insoningiz bilan hech narsaga qaramay, turmush qurgandirsiz. Hech narsaga qaramay, sevgan ishingizni qilayotgandirsiz va yana ko'pgina narsalarga qaramay hayotiningizning bir qismida mutlaqo baxt bilan tanishgandirsiz.

Aynan mana shu shaklda har yili, har kuni va har soati bilan hech narsaga qaramasdan yashashdir hayot. Umidingizni aslo yo'qotmang, chunki sizga huzur olib keladigan o'sha buyuk on bilan qachon uchrashishiNGIZNI aslo bilmaysiz, shu sababli tayyorgarliksiz kutib olmaslik uchun umidingizni yo'qotmang.

***Hech narsaga qaramay, hamma narsani
uddalay oladigan o'sha hayajonni umringiz
davomida ko'ksingizda tashishingiz kerak.
Tashiy olishingiz kerakki, yaralangan vaqtingiz
jarohatlangan joyingizda gullay oling.
Sevgi bilan. Ishonch bilan.***

Ilk marotaba g'oyib bo'lishni xohladim

Ruhimning har bir parchasi qum zarralaridek at-rofga sochilshini xohladim. Ichimdan toshganlar ko'-rinmadni ham. „Sevaman lekin...”deb boshlangan jum-lalar meni garang qilib qo'yayapti. Bu safar toza bir boshlang'ich qilish yanada qiyinroq. Sizni aldashma-yabti. Endi hayot Pushti rangga burkanmagan. Butun ranglarni taniyman va bilaman.

O'layapman. Juda ko'p o'layapman. Xayollarim meni yanada chuquroqqa tortayotganini his qilyapman va o'sha yerda qayerlardadir baxtli bo'lyapman. Azob, baxt ulashishni boshlaganida ortiq hech narsa oldin-gidek bo'lmaydi.

*Jonim azoblanyapti. Bu safar jonimning
yong'inlarini so'ndirishga ko'zyoshlarim
yetmaydi.*

Lekin sindromi

Hamma narsa joyida ekanligiga qanoat qilish uchun yashayapmiz. Buning uchun ko'p harakat qilib, har bir ehtimolning tagiga qo'l uzatyapmiz. Ko'pincha o'zimizni isbotlash, o'zimizni haqiqatga aylantirish yo'lida o'zligimizdan voz kechamiz. Nasibamizga ishonib, ehtimollarga bir marotaba bo'lsa ham fursat berib taqdirimizga hech imkon bermaymiz.

Har bir muammoga har bir qiyinchilikka qarshi „lekin“ deymiz. Bu savollar bilan va bu bo'yni bukilgan hayot bilan inson qancha yo'lni bosa olishi mumkin? Yashashdan qo'rqtyapmiz. Butun bu gaplarni shunchaki quruq gap bo'lsin deya gapirmayapman. Bari chigallashib ketishidan dir-dir titrayapmiz.

Inson albatta, o'z taqdirini yoza oladi, lekin qadar ning ham siz uchun tilaganlari bor. Doim bu haqida unutib qo'yamiz. O'zimizni rollardan rollarga solamiz. Aslida eng ko'p shu yerda xato qilamiz chunki hamma narsa hayotning bir illyuziyasidan iboratdir.

Modomiki biz bu dunyoga o'lish uchun kelar ekanmiz, shunchaki hangomaning kimga keragi bor? Shunchaki o'lishni kutamizmi? Hamma narsaga bitmas, bilmas bir „lekin“ deb shubha bilan qarab, yangi yo'llarga chiqmaymizmi? Qachongacha ichimizdag'i ozodlikni kishanga olamiz?

Shunday ekan hech narsaga qaramasdan uzoqlash-may yashash lozim. Yomon narsalarning sodir bo'li-shiga tayyor bo'lish va uni ham har onda boshimizga keladi deb kutish lozim. Faqat ichingizdag'i baxtning beg'ubor qo'lini qo'yib yubormay, o'sha notinchlikni qarshilamoq kerak. Baxt bilan yelkama-yelka tursa-ningiz, hayotning qaysi qayg'usi sizni yiqita oladi? Sevgi bilan qo'lni qo'lga bera olishni bilmaganingizdan keyin qaysi dardni yenga olasiz? Birgalikda eshikni ochib ichkariga taklif qilish lozim. Dardlarning rashkini kel-tirish kerak, ularning ko'nglini aynitish va hatto yuz-sizlik qilib ularni ham sevish kerak. Qo'rmasdan hisob-kitob qilmasdan sevish lozim.

Chunki qayg'ular buqalumon kabi kirgan qalbning rangini oladilar. Unga aralashib, mavjudliklarini unutadilar. Eslang: „Har xayrda bir yomonlik, har yomonlikda esa bir xayr bordir”. Agar rango-rang qalbingiz bo'lsa, uni endi hech bir zulmatni qoraytirib yubori-shiga yo'l qo'ymang. Qo'ying, o'zingizga qo'yib bering muhabbat sizni davolasin.

Ikki chamadon orasidagi hayot

Ko'pincha kitoblarimizni kuldonga yoki tagi qurib qolgan qahva finjoniga tirab, xuddi ikki chamadon eshik tagida tayyor kutayotgandek biz tanimagan insонlar bilan to'la begona shaharga ketgimiz keladi. Bir yelkamiz singan, gips ichida pastga tushib, ko'ksimiz qafasini toliqtiradi. Qayerlardandir shoirlar aza tutayotgan qalbimizga hayqiradilar: „Yig'lay ko'rma“. Davrlar o'tib, ichimiz mana shunday tarqoq va aralash boladi. Hamma narsa bir-biri bilan quchoqlashadi. O'zimizni shoirlar, kitoblar kabi zehnimizni aldaydiganlar orasida topamiz.

Katta do'konlarning oynalarida o'zimizni sevishga juda ham uddaburonmiz. Holbuki, derazalaridan uyqu kirmagan tonglarimizdan so'rasak dunyoning eng jirkanchi bismiz. Ulg'ayganimizda voz kechganlarimiz bir neylon paketiga ham sig'maydi. O'sha jarohatlangan yosh qizning qalbi, voz kechganlari nechta chamadonni tashkil qiladi hech o'ylab ko'rdingizmi? Kechaning arazlashiga, vidolashuvlarning sovishiga endi e'tibor qaratmaymiz. Hayotimizdan ketganlarning bir-ma-bir butun ranglarimizni ham olib ketishiga parvo qilmaydigan bo'ldik. Balki, ko'nikib qolgandirmiz... Qoraga yaqin ranglarning yog'dusi bizni alday olmaydi. Biz o'sha tunda o'zimizga so'nggi bora uyqusiz qoldik

deya va'da bersak ham, hayotga yangidan bog'lanish-ga va boshlashga qaror qilsak ham bu boshlang'ichni nega hech boshlay olmaymiz?

Boshqa biri qoldirib ketgan xarobadan uyg'onishning vaqt kelmadimikan? Bundan keyin taxminan qancha yashashimizni hisoblashga ham haddimiz sig'mas ekan nima uchun shuncha azob? Agar bir jarlik bo'lsa, uni yolg'iz biz ko'ramiz. Biz buni qabul qilmasak ham ko'zlarimiz haqiqatlarga ochiq. Faqat ruhimiz char-chagan, qalbimiz yengilgan holda, bori shu!

Ichimizdag'i umidning barcha holatlari to'lib-toshib ketdi. Har safar „Ranjitishga qurbi yetadiganlar bo'lsa marhamat kelsinlar“, deymiz o'yamasdan, ustiga-ustak o'zimizni jasur deb bilib, yap-yangi umidsizliklarga taklifnomha chiqaramiz.

Lablarimiz orasidan dunyoga nechta she'r sochildi? Quloqlarimiz qancha hissiyotga boy musiqlarni tingladi? Bir matrushka o'yinchog'idek tuyg'ularimiz, har bir umidsizlikning ichidan hayotimizning o'rtasi-ga necha bora sevinch ko'z yoshlari sochildi? Hamma oldidagi eng katta ehtimollarning, eng katta fursatning bugun ekanligidan so'z ochishganida, biz ertalardan o'tganimizga kunlar bo'ldi. Doim o'z uyimizga ko'cha eshikdan mehmon kabi kirgandek his qildik. Ichimiz shu qadar titroq ichida ediki, uni ko'rmadilar; atrofimizda sevamiz deganlarimiz, birlashtirdik deganlarimiz, yaxshiyam borlar deb madhlar aytgan insonlar olomoni bor. Bor bo'lish qo'rquvimizni, oid emasligimizni, qalbimiz jarohatlarini ko'ra olmadilar.

Nega hatto soyamizning ham baxtdan uchgan vaqt-larining oxiri doim baxtsiz yakunlar bilan bezandi? Birgina inson qanday qilib baxtli qilayotib bir onda baxt-

siz qila olishi mumkin? Insonlar yo'lning boshida ber-
gan va'dalarining aksini bajarish bilan mashhurdirlar... Aslida hayot bir stakan ichida to'plangan durlar-
ni qiyalikdan pastga tashlab yuborishdek ekan. Ham-
maning uch tilak haqqi bor edi. Biz birinchi tilakning
o'zidayoq barini hal qildik va o'zimizni doim baxt-
sizlikka itardik.

Hayot boshdan oxirigacha biz ichiga ziravorlar
qo'shishni unutgan bemaza ovqatdek go'yo. Dardlarini
mizni eng achchiq deb o'ylab hayotni ayplashda da-
vom etdik. Taqdirni ayplashda davom etdik! Vaqtı-vaqtı
bilan hammaning ruhini og'irlashtirgan, uni o'zidan
uzoqlashtirgan bir safari bo'ladi. Hayot hammaga bir
tekis va uzun yo'llarni ko'rsatmaydi. Yo'limizni past-u
balandi bilan seva olganimizda shunday bo'larmidi?
Buni butun yuragim bilan, qayg'udan bo'g'ilib, diqqa-
nafas bo'lib aptyapman. Ba'zi narsalar qo'lingizdan oli-
nayotgan bo'lsa, meni qiyagan narsalarning qo'lim-
dan olinishi uchun duo qilganimdan bu huzurga yetish-
dim. Butun menim bilan taslim bo'lib, o'zgarishimga
ishonib va so'nggi nuqtani sevgi bilan qo'ygancha. Sev-
gining davolaydigan kuchiga tutinib bu azobli urish-
ni yengib chiqdim.

Hayotimiz davomida boshimizga nima tushsa, tush-
sin biz sevish uchun sabablar qidiraylik, chunki in-
sonni mutlaqo sevgi davolaydi. Endi hech narsa hatto
filmlarning hissiyotga boy sahnalari ham ko'z yosh
to'kishimizga sabab bo'lolmaydi. Bir tuyg'uni himoya
qilgan bo'lsam bu tuyg'uni unga ishonib ulg'aytirdim.
Hamma narsa juda katta tezlik bilan yangilanyaptiki,
hech narsani payqay olmayapmiz, hamma narsa bir-
daniga o'tib ketyapti. Turli-tuman, ko'payib borgan sari

qor to'pidek kattalashadi. Naqadar katta bo'lsa-da, menga zarar bergen narsa endi shunaqangi tez o'tib ketyaptiki. Hayotning jilvasiga aldanmayapman, yosh qiz qalbi ham vaqt bilan ulg'ayyapti. Agar orqa bog'-chamiz xursandchilik bo'lsa, men uni hatto yerto'la-ning derazasidan ham tomosha qilaman. Namlikka qa-ramasdan, to'planib qolgan suvlarga va singan dera-zalarga qaramasdan. „Qidirgan topadi. Topganlar qi-dirganlardir“, deydiganlar bo'lsa, meni ko'rishgandir deyman. Chunki men hech voz kechmadim. Meni se-vish davolaydi.

Yoshgina qalbingizga sizni ranjitgan narsalardan voz kechishingizning hikoyasini qo'shiq aytgandek tu-shuntirib bering. O'z qalbingizdan bexabar, ulg'ayga-ningizdan bexabar, kelib-ketgan qayg'ularning sevgi bilan uzoqlashtirilganini, sevish bilan shifo topishini totib ko'rishingiz umidi bilan qayg'ularingizdan voz keching.

*Faqatgina yuragingiz tub-tubida
to'lg'anayotgan o'sha yaxshi ovozlarga quloq soling.
Sizga to'g'risini aytadi.
Eshitishni va o'zingizni SEVISHNI bilishingiz
yetarli.*

O'zgarishni umid qilmoq

Inson borim shu deganidek bo'lmaydi.

Borim shu deganlar bilan hayotda qola olmaysiz.

Har bir inson ruhi, albatta, o'zgaradi.

Bu o'z hatolarini ko'ra olish bilan bir emas.

*Hayot o'zgarishni qabul qilgan barchaga omadlar
tortiq qiladi.*

*Qalbingizga go'zalliklarni ekishingiz, sevgi bilan
sug'orilishingiz yetarlidir.*

*Hayot mutlaqo umringizga yaxshi yuzi bilan kulib
boqadi.*

*„Doim o'zingizga savollar bering“, derdi maktabdag'i
bir o'qituvchimiz.*

*„Agar bir yo'lida yurishni istasangiz doim o'zingizni
savol-javob qiling“.*

Chunki hayotda yurgan yo'llaringizdan biri mutlaqo yopiq bo'ladi. Birinchi tanlovda tog'ri yo'lni topganlar uni bir necha sabablarga bog'laydilar: omad, to'plangan bilimlar yoki tajriba. Lekin hech sinab ko'rмаган va o'zini savol-javob qilmaganlar doimo noto'g'-ri qadamga ellik foiz yaqin bo'ladilar. Xatolarini takrorlagan insonlar mutlaqo xatolaridan dars olmagandadir. Siz dars olishni istamagan voqealarni hayotsizga odatiy holini ko'rsatadi. Nimadan qo'rqtyapmiz,

aslida o'zgarish qiyin emas, biror narsani uddasidan chiqish hirsiga yo'liqish ham... Bu nuqtada ishimizga kelmaydigan narsa esa boshqasidek ko'rinish. Qarshimizga bir passportni olib, „Men shunga o'xshashni xohlayman“, deyish bilan hayot o'zgarmaydi. U bu dunyoda o'z tuyg'ulari bilan mavjud ekan, siz o'sha tuyg'ularning nima ekanligini ham bilmaysiz. Dunyoda ichi bo'm-bo'sh haykaldek kezayotib o'zingizni topib olasiz.

Obro'sizlashtirish harakatlarining oldiga o'tib hatto vaqt kelganida boshqasining tajribalari va bilimi ning ustun ekanligini qabul qilsak nimani yo'qotamiz? Hamma topishni xohlagan obro'-e'tibor, ko'rishni xohlagan hurmat bo'lsa agar, buni avval o'ziga qilishi kerak.

Bir kishi, eng avvalo, o'zini hurmat qilganchalik bordir. Hurmat ko'rsatishning butunligi oldingi sahnaga madaniy bir shaxs va harakterni chiqaradi, shu tariqa o'zgarishga birinchi qadamlarni qo'ygan bo'la di. Har kuni undan keyingi harakter va shaxsiyatimizning ilk qadamini qo'yayotganimizda devorlarni buzib tashlashni xohlashimiz va qiyinchilikka kirishimiz, kishining o'ziga qilgan eng katta haqoratidir.

Kechada qolgan yagona narsa bu xotiralarimiz. Agar bugun bor bo'lsak, ertalarimizga tayyorgarlik qilish uchun bormiz.

Hayot davomida bir xil inson bo'lish qiyin. Hayotning davomiy o'zgarishlarini o'zingizga moslashtira olmaysiz, siz hayotga moslashishga majbursiz. Qoqlib, suqilib, bir umidsizlik va qayg'uning ichida bir umr yashay olmaganingizdek aynan mana shunday o'ylashga majbursiz.

Bir mashina parchasi boshqa turdag'i avtomobil-larga mos tushmaganidek o'tmishda qolgan hech narsa yangilari bilan mos kelmasligiga qanoat qilishingiz kerak. Davomli ravishda davr o'zgarayotganiga guvoh bo'lib turgan bu zamonaviy texnologiya davrimizda o'zimizning ham aslimizni buzmasdan o'zligimizni himoyalab hamohang bo'lishimiz lozim.

Qiyinchilikni eshitish kerak, boshqalardan qiyin bo'lgan narsalarni mutlaqo eshitish kerak. Oldingi holingizda qolib ketgan hayotingiz sizni hech bir haya-jon bilan tanishtira olmaydi.

O'sha insonni toping, u bilan tanishing, uni his qiling. O'zingizni o'rta ga otning va „Men shuman!“ deng. O'zingiz uchun emas, tuyg'ularingiz uchun yashang, sizni sevganlar uchun o'zgaring, oyningiz uchun, dada-niz uchun, ukalaringiz uchun eng ko'p farzandlari-ningiz uchun o'zgaring.

Hayot hech narsaga qaramay, seva olganlar va sevishga to'yunganlar uchun go'zaldir.

Chuqurliklarga tikilib qolish insonni bo'g'adimi yoki o'ziga keltiradimi?

Menimcha bo'g'adigandek his qildirib o'ziga keltiradi. Eng kamida menda shunday bo'ldi. Suzishni na-qadar bilmasangiz hayot sizni shu qadar chuqurga otadi. Bilganingizda, buni anglaganiningizda yolg'izlikni tanlaysiz. Shu sababli o'rganish ba'zan hayotni qutqaradi. „Bilolmayman-ku“, deyish va juda ham keraksiz narsalarni o'ylash insonni charchoq tomon itaradi. Ba'zi birlar uchun bu ongli bir tanlovdir.

Arqonni uzun tashlang. Qiynamang, ba'zan o'rganish insonni oydinlata olmaydi, fikrlarini qoraytirib yuboradi. Aqlingizning chiroqlarini o'chirib qo'yadi. O'sha o'chirish tugmasi haqida o'qimang. Sizga farz qilingmagan narsalarni, haddan ziyod kavlamang.

Keraksiz detallar insonni charchatadi. Sizdan ketgan hech kim haqida havotirlanmang. Qaramang, ko'r mang. Qarasangiz sog'inasiz, sog'insangiz uni ham sizni sog'indi deb o'ylab qolsangiz-chi? Yoki tuyg'ulari-ningizga, oldingi kunlarning xotirasi og'ushiga tushib, bo'l-mag'ur insonlarga qaytadan taklifnomalar chiqarib qo'y-sangiz-chi? Yaxshi niyattingizni ba'zan duolaringizga yashirishni bilishingiz kerak.

Hislar bizni adashtiradi. O'y-fikrlarga ko'p e'tibor-ni qaratish ma'lum bir nuqtadan keyin inson qadrini pasaytirib yuboradi. Qarshimizdagи insonning bizga nisbatan butun munosabatlarini puchga chiqaradi. Bu esa o'z-o'zidan baxtsizlikka olib keladi. „Qanday qilib bo'lmasin kechiradi”, „U chidab turolmaydi, ko'ngli bo'shdир“, degan hislarni qadr bilmaslarning qo'liga ko-zer qilib bermang. Yashirin ham bo'lmanг, qo'pol ham bo'lmanг; kamtarlik sohibi bo'ling va aqlilarcha mu-nosabatda bo'ling, bori shu. Siz haddan ziyod qochgan har bir tuyg'u sizni o'zingizdan uzoqlashtiradi, unut-mang.

Aqlingiz shu darajada karaxt bo'lib qoladiki, hat-to o'zingiz o'zingizni tushunmasdan o'ylaganlaringizni aytib berishni boshlaysiz. Chalkashlikning ichida cho-rasizcha yechilishni kutasiz. Haqli bo'la turib, nohaq bo'lib qolasiz. Ba'zi tuyg'ular juda ham soxta. Ular siz-ni adashtiradi. O'sha tuyg'ular ichingizda qor ko'chki-sidek kattalashishiga yo'l qo'ymanг. Turib-turib vas-vasalarni ortiq qalbingizga kirgazmang. Biroz bo'lsa ham o'zingizni o'ylang. O'zingizda bo'lishni, xohlagan joyingizda ekanligingizni tasavvur qiling va unga ham-ma diqqatingizni qarating.

Radikal tanlovlariimiz

Har tarafimiz huzur bilan to'lsin deya o'z tanlovlarimizdan atrofga urug'lar sochamiz. Ko'ksimizdag'i og'riqlar bilan qachongacha yashay olamiz? Yangi hayotimizni bir nimalardan voz kechib boshlaymiz. Ichimizdag'i fasl, kuzdan o'tib qishga suyangan bo'lsa va ustiga-ustak hayotimizning har tarafiga qorlar yog'a-yotgan bo'lsa, o'z radikal qarorlarimiz bilan birgina qalamdan bahorga o'tmaslik uchun yanada yomon narsalar bo'lishini kutamizmi? Bu bahorlar tomon yugurishimiz o'zimizning tanlovimiz bo'lsa va har safar bizga haqiqatdan huzur baxsh qilayotganini his qila-yotgan bo'lsak bu biz uchun naqadar mukammal bir boshpana. Bu hayotni o'z qarorlarimizning boshpansasida yashaymiz, o'z qarorlarimizning tutgan tik boishi bilan. Xato va yanglish insonlarga peshona terimiz, onamizning oq sutidek pok boshimizni tik tutib, qarshi chiqamiz. Oshirib yubormasdan, tavoze bilan chiqamiz. Bizga o'xshashlarning na kuzlarga na qish mavsumlariga umidi qolgan. Ha, to'g'ri eshitdingiz, biz umid qilmasdan, shunchaki qo'llarimizni siltab uchib ketamiz. Chunki haddimizni ham, o'zimizni ham bilmazim.

Inson aynan mana shunday bo'lishi kerak: o'ziga ishonchi komil. Ikkilanishdan yiroq, jasur bo'lish ke-

rak. Mas'uliyatni yelkaga olish bilan boshlangan yangi sahifalarning davomi doimo top-toza va benuqsondir. Chunki hech kim yolg'iz o'zi xato qilmaydi. Nega boshqalarning bilvosita yo'llaridagi bo'shliqlarga bir shaklda tushamiz. Chunki agar hamma qilgan xatolaringning bo'shlig'ini to'ldirganda edi, biz ichiga tushadigan xato qolmasdi. Shunday ekan nega unda biz yolg'iz boshimizga bu yukni yelkamizga olishimiz kerak? Agar yangi sahifaga juda oson bir yo'lda o'tishning endi hissiy bir tortishma ekanligi haqidagi hamfikr bo'l-sak va orqamizni o'z g'ururimizga suyagan bo'lsak, hech kimga na ezadigan qalbimiz, na xayollarimiz qoladi. Aynan mana shu boshidan, atayin yashashni xohlashdir. Biz havas qilgan hamma narsa mana shu tarriqa bir film tasmasidek hech qotmasdan, aylanib ketmasdan baxtli yakunga yetguncha o'tib boradi. Xatolarning qarshisiga qaddingizni tik tutib chiqsangiz bas.

Sodiq o'lim

Ba'zi narsalar o'z yo'lida ketishi kerak bo'lsa, itoatkor dunyoqarashi bilan odimlagan paytda o'z yo'lida ketadi. Biz isyon qilib kechinmalarimizni yanada chidab bo'lmas holatga keltirganimizda bu itoatkorli aziyatga aylanadi. Baxtni kichik narsalardan qidiring. Boshqalarda boriga qaramang. Sizga berilgan nasiba boshqa, unga berilgani boshqadir. Sevgan insoningizga sodiq qolgan vaqtingiz mobaynida siz baxtli bo'lasisz. Hali ham oilangiz bo'lsa bu hech narsaga qaramay, unga sodiq qolganingiz uchun bor. O'zingizga ishon-chingiz komil va ishonayotgan bo'lsangiz bu hali ham e'tiqodingizga taslim bo'layotganingizdandir. Nima bo'lsa bo'lsin, sodiq qolish kerak.

Agar inson qalbida sevganini o'dirsa, bu fikrga ham sodiq qolishi kerak. Hayotning, ongning ufqlaridan oshib o'tib, har tarafga sudrab ketishini fahmlay olishimiz kerak. Doim Rabbimizdan hamma narsaning eng xayrlisini tilaymiz. Unda nega tugagan bir sevgining ortidan ko'z yosh to'kamiz? Yanada yaxshisi uchun sodir bo'lgan bo'lsa-chi? Inson avval Rabbiga sodiq qolishi kerak. Rabbiga sodiq qolib o'lmog'i lozim. Qayerda hayotdan ko'z yumgan bo'lsa, o'sha yerdan uzoqlashib, uning ko'ksida birlashtirgan shaharlarni tark etishi kerak.

Butun ma'sumiyati va ichimizda birikkan butun shubhalari bilan hali ham hayot bizni qo'ynida oziqlantirayotgan bo'lsa, hatto unga ham sodiq bo'lishimiz lozim. Bizga sirtdan xanjar urish yarashmaydi. Xiyonat qilinib yugurilgan yo'l bizni qayerga ham yetaklar edi? O'z yolg'izligimiz va xaraktersizligimizning ho-vuchlarida qabul qilinmagan duo misoli qolib keta-veramiz.

Sizni to'ppa-to'g'ri o'limga yetaklasa ham ortingizdan jasadingizni tashiy oladigan bir necha inson qoldirib ketish uchun aslo hayron qolmang. Siz xatolariga ko'z yumib ketmaydi degan necha kishi hozir yoni-nqizda? Agar hayotingizda kimdir bo'lsa, uning begona biriga munosabatlar orqali sodiq qola olish muddatini o'lchang. Chunki bir begonaga nisbatan qalbida yomon narsalarни biriktirgan insonlarning dog'li, al-batta, sirtiga chiqadi.

Unutmang: oxirgi so'zni hayot emas, sodiq qola olish aytadi. Barcha yaxshiliklar itoatkorlikka sodiq bo'lganlar uchundir. Taqdir barakali tanlovlarni tortiq qilishining sababi shu emasmi? Fazilatli umidlar sevishning, rostgo'ylikning tarafdarlari uchundir.

Sodiq qolishni hayotining falsafasiga aylantirgan insonlar g'ururli insonlardir; hiyonat bilan, ortidan xanjar urish bilan ishlari bo'lmaydi. Insonlarni yig'-sak, kurashimiz dunyoga qarshi birlik bo'lsa, sodiq insonlarni yig'ishimiz kerak. „Jasurning boqishi, qo'r-qoqning qilichidan keskinidir“, deydilar, naqadar to'g'-ri, shunday emasmi?

Jasorat qilib bir insonga ishona olish, hatto unga sodiq qola olmoq, qalbidan yomon hislar ufurib tur-

gan insonlarni naqadar qo'rqtadi. Chunki buning uchun nimalar qila olishlarini va nimalardan voz kecha olishlarini juda yaxshi biladilar.

„Bu hayotda ular joyidan qo'zg'ata olmaydigan tosh bo'ling. Joyingizda og'ir bo'lib turing“, deyishadi yoshi ulug'lar.

Har bir insonning qalbidagi har bir zarranning har qanday holiga rozi bo'lishdir sodiq bo'lish. Bo'shlig'i-ga ham, tebranishlariga ham... Hayotni butun shirin-achchiq tomonlariga birgalikda tutinib, nomus bilan, odob bilan poylashishdir.

„Bu hayotda yem bo'l mang. Bu dunyo katta bir dengiz bo'lsa, siz ichidagi eng katta baliq bo'ling“. „Bo'yningizni bir marotaba bukib ko'ring-chi, siz taxmin qilmagan necha inson qilichini qinidan chiqari-shini ko'rasiz“, deyishadi kattalar. Hamma narsa tu-shadigan paytlar bo'ladi, vaqt bilan o'tadi, bir chekkada dam olasiz. Hayot bu, ora-chora reytinglar ko'tarilganda reklamalarga ham borib turasiz. Agar yiqlisangiz, boradigan joylaringizning allaqachon harobaga aylanganini ko'rasiz.

Yiqlmang! Kattalarning so'ziga quloq soling.

Bu dunyoga yig'lab-yig'lab keldingiz, boshqa qayerga ham boardingiz? Siz bu hayotdan ortga yo'l yo'qligiga ishondingiz va bunga iymon keltirdingiz, kamida o'zingizgagina qayta olasiz. Hamma narsani fahmlayapsiz, endi ortga yo'l yo'q. Nafas olib, dam olish uchun vaqtingiz bor, lekin o'zingizga sodiq qolishdan boshqa ortga yo'l yo'q. Modomiki ortga yo'l yo'q ekan, unda kesib chiqadigan yo'llarni qidirishdan naf yo'q. Hayotning qarshisiga jasurlarcha chiqing, mushtingizi ni siqing va „Men shu yerdaman“, deng.

*Ismet O'zel nima deyayotganiga qarang:
„Hammaning bahonasi bor, sizniki yo'q.
Gunohga to'la bir soyaning salqinida,
biroz kutib tura olasiz.
Keyin esa bu yerda qololmaysiz,
boshiga qaytolmaysiz, ammo siz qayting.
Uyga qayting!
Qo'shiqqa qayting!
Qalbingizga qayting!”*

Alloh hammaga turli xil taqdirlarni bitgan

Har bir insonning turli xil xujjatlari bo'ladi. Balki hayotdan olingan darslar farqli ekanligi ham shundadir. Allah hammaga turli xil taqdirlarni bitgan. Ma'lum narsalar, tanlovlardan tamoman o'zimizning qo'limizda. Boshqa biri sinab olgan natijani siz qo'lga kiritma olmasligingiz mumkin. O'z xayringiz uchun nima eng yaxshiligini o'zingiz bilasiz. Vaziyat shunday ekan insonning fikrlari va olgan tajribalari turli xil ranglarda bo'ladi. Voqealarga bo'lgan munosabatlar tamoman boshqacha bo'ladi. O'zingizni boshqa insonlar bilan qiyoslamang. Fitrat deb atalmish bir haqiqat bor. U boshqa, siz boshqasiz. Boshqasi bo'lishga urinmang, o'zingizni kashf qiling va o'zingizni seving, o'zingiz bilan yarashing. O'ziga xos bo'ling.

Ba'zan o'zimizni majburlab boshqa insonlar bilan musobaqaga kirishamiz. Ich- ichimizdan qayg'uramiz. Holbuki inson qayg'urmasligi, hasad qilmasligi va yanaada yaxshisini, o'ziga mansub bo'lganini uddasidan chiqishi lozim. Boshqalarning muvafaqqiyatlaridan faqatgina muvafaqqiyat motivatsiyasi paydo bo'lishi kerak. Hayotni fotolentadek yashash lozim. Biz esa o'zimizga mos bo'lмаган qolipga kirib olib, baxtsiz ruhlarni ulg'aytiryapmiz.

O'g'rilik qilgani keldik

Eng yaxshi o'g'rilar kirayotganda emas, chiqayotganda o'zgaradi deydilar. Hanuz nima qilishimizdan bexabar bir ahvolda hayotga javdirab boqamiz. Yillarimizni biriktiriyapmiz va bir maqsadga ko'zimizni tikyapmiz. Afrikada judayam g'alati maymun ushlash usuli bor: bir ko'zaning ichiga yemish qo'yib, uzoqlashadilar. Qaytib kelganlarida esa maymunni o'z-o'zini qo'lga tushirgan holda ko'radilar. O'sha ko'zaning og'zi shu qadar kichikki faqat bosh barmog'ingizni kichik barmog'ingizga qarata bukib ichiga kirgiza olasiz. Biroq ichidan hovuchingizga biror nima olganingizda qo'lingiz bir musht holatiga keladi va ko'zaning ichidan chiqmaydi. Maymunlar ochko'zdirlar, o'lim evaziga bo'lsa ham qo'lidagini qo'yib yubormay o'zlarini qo'lga tushiradilar. Aslida mana shu va shunga o'xshash narsalardan „ishtahasi maymunnikidek“ iborasi kelib chiqqan. Biz ham hayotga qarshi ko'zimizni tikyapmiz, hayotga doir o'g'riliklar qilishga urinayapmiz. Bizni baxtli qiladigan narsalarning ortidan quvlayapmiz. Bir bankni o'marishdek tasavvur qiling. Qopning ichidagi pullar ko'zimizni to'ydirmasligi bizning eng katta muammomiz, shuning uchun ba'zida biz insonlarga ham ishtahasi maymunnikidek deganlar ham bo'ladi.

Dunyo bozordir aslida, kattakon bir bozor. Muva-faqqiyat qozonishingiz uchun barcha imkoniyatlar, barcha eshiklar o'rtaga tashlangan. Yo hech yetishishga ishonchingiz yo'q, yoki urinib ko'rgan yo'lingizni o'zgartirmaslik uchun qaysarsiz. Chunki baxtli va farovon hayotga olib boradigan yo'l mutlaqo bordir. Bir narsalarga egalik qilmoqchi bo'lsangiz ranjitmasdan, dunyoning ko'ziga botmasdan unga ega chiqasiz: hech kimni nohaqlikka duchor qilmasdan, navbatda kutayotganda bir necha kishidan o'zib ketmasdan. Yashash bo'g'zingizda tiqilib qolmasligi uchun ham eng ko'p siz bunga loyiq ekanligingizga ishonishingiz kerak.

Shu nuqtagacha hamma narsa odatdagidek, haqiqiy urish bundan keyin boshlanadi. Ichimizdag'i urishning boshlangan joyi, aynan mana shu nuqtadan keyin qalbimizda paydo bo'ladi. Chunki qalbda boshlangan hayot, bir kun mutlaqo qalbda o'z nihoyasiga yetadi.

Bu hayotni tark etayotganimizda evaziga voz kechganlarimizning hisobini bera olamizmi? Hayotning qarshisida uyalmasdan voz kechganlarimizni so'roq qilib tura olamizmi? Yashash deb atalmish bu sarguzashtni bezorilardek talon-taroj qilayotganimizda to'y-ganimizni his qilib oq, dasturxonadan tura olamizmi? O'sha ko'zaning ichidan qo'limizni chiqara olamizmi? Sevgi bilan kelgan bu dunyoga sevgi bilan vidolasha olamizmi? Qalbimizdan bir so'raylik-chi...

*Hayotingizni bir marotaba yashaysiz. Hayotingizda
hech bir yoshingiz, oyingiz, haftangiz, kuningiz hatto
bir soniyangizning ham o'mini bosuvchi narsa bo'lmaydi.
Shu sababli boshingizga tushgan dard bilan yarashing.*

*G'ammingiz ichidagi huzurni toping. Sizni quchganni
yanada qattiqroq quching. Ketishni istaganlarga eshikni
ochib bering. Oldingizda uzun bir hayot turibdi va
unutmang, so'nggi so'zni har doim hayot aytadi.*

*Hayotingiz qahramonini toping. Yo'singizdag'i
do'stlaringizni yaxshilab tanlang, Sizni yarim yo'lida
qoldirib ketadiganlarni eng yaxshi siz bilasiz, ular
faqatgina do'stingiz bo'sib qolsin. Ular bilan aslo
yo'nga chiqmang, hech narsa kutmang. Holdan toyasiz.*

*O'zingizni seving. Shuni bajaring. Shuni uddalang.
Insonlar sizni sevishsin deb ranjisangiz ham, ularning
yuraklariga taskin bermaslik uchun ham o'zingizni
seving. Har qanday vaziyatda bo'sangiz ham barchasi
ortda qolishini biling. O'zingizga ishoning. Ishonib
bo'lmaydigan insonlardan umidlanmaslik uchun
ham o'zingizga ishoning. Hayotga qattiq bog'laning.
Oyoqlaringiz yerni mustahkam bossin. Aks holda,
oyoqlaringizni yerdan uzgan har bir tuyg'u sizning
umidrlaringizni uzadi. Ba'zi tuyg'ular xayolotdir.*

O'zingizni haqiqatdan taniguningizgacha
juda ko'p insonni taniysiz. Qayta-qayta aldangandan
so'ng o'zingizni alday olmaysiz. Hammaning
ko'ringanidek bo'lmasligini o'sha onda anglaysiz.
Yanglish insonlar bilan vaqt o'tkazgandan so'ng
o'zingiz bilan vaqt o'tkazishning qadrini
anglab yetasiz. Yolg'izlikning unchalik ham
yomon emasligini, yanglish insonlarni
taniganingizdan keyin anglaysiz.
Siz baxtlı bo'lishini xohlagan insonlardan
kutilmagan noxushliklar ko'rganiningizda anglaysiz,
avval o'zingizni baxtlı qilishingiz kerakligini. Inson
avval o'zini topishi kerak ekan. O'zini topolmagan
yo'sini yo'qotar ekan.

Hech narsaga qaramay

Hamma narsaga to'xtamay kula olayotgan bo'lsak va sababsiz bir nimalar qilishga urinayotgan bo'lsak, bordaniga bir nimalarni niyat qilishga kuchimiz bo'lsa, hayotni bir sababga bog'lab qo'yaganligimiz uchundir. Tajribalarimga asoslanib gapiryapman, bir qalbning ichidagi kapalakning umrini emas, uning rang-barang ekanligini payqagan insonlarning tajribalariga asoslanib gapiryapman. Modomiki hayot sizning qanday qarashingizga bog'liq ekan, hayot siz derazadan ko'rayotganlaringiz bilan bus-butun bo'lsa, men kapalak qanotining rango-rang ekanligiga diqqatimni qarataman. Kaktusning gullariga ko'zimni tikaman. Bir toshning ichida ildiz otgan gulga yo'nalamani. O'sha yerdan hayotga nazar tashlayman, yam-yashil chimgarga, parkdagi xilma-xil gullarga, ko'kda qanot qo-qib uchayotgan qushlarga qarayman. Hammaning havyoti bir kishilik ekan, modomiki hisob-kitob kunida bir kishi uchun javob beramiz va hech kim bizning kechinmalarimizdan mas'uliyatni bo'yniga olmaydi, u holda nega ikki kishilik derazaga muhoj bo'lishimiz kerak?

Ataylab deraza oldiga gullar ekamiz, egnimizga rang-barang ko'ylaklar kiyib, ko'ksimizga oxiri ko'-rinmas sevinchlar, xursandchiliklar va to'xtamas qahqahlarni ilib olamiz.

Dunyoning baland-pastiga ahamiyat beraverish kerak emas, agar biror nimaga ahamiyat berish kerak bo'lsa, hayot oqimida noumid sovurilgan sochlarimizga turli-tuman qisqichlarni taqamiz, chunki hayotning joningizni azoblashga moyilligi bo'lsa, bizga hech narsaga qaramay yashash yarashadi.

Hayotga doir tafsilotlar

Siz o'ylaganingizdanda, siz loyiq ekanligingizdan ham ortiqroq yashayotganligingizga qanoat qilgan oningizdayoq, sizni ro'yobga chiqishini istayotgan orzularingiz o'zi tomon chorlaydi. Siz qayerga ketsangiz ham, u sizni bir kun, albatta topib, o'zini sizga eslatadi. Chunki tuyg'ular doimo birgalikda yashaydilar, ular bir-birlarini juda yaxshi taniydlilar.

Tuyg'ularning ham ong osti bo'ladi, boshdan kechirmoqchi bo'lganlarini hech qachon unutmaydilar. Ijobiy bir voqeaga duch kelganlarida faqatgina baxt oyoqqa turadi va harakatga tushadi, yomon bir voqeada esa navbat qayg'uga keladi hamda baxtning o'rninga o'tiradi. Har biri bir-biri bilan ikki yaqin do'st, lekin hech kimning hech kimdan xabari yo'q. Tuyg'ular kabi hayot ham o'z ichidagilari bilan butundir, dard ham qayg'u ham ikki yaqin do'stdir.

Hammasi hech narsaga qaramay, bir yerda bo'lsalar hayot bo'ladi. Bu hayotda hamma narsa uyg'unlikda mavjud bo'ladi. Masalan, nimaga yaxshi deymiz? Yomonlik degan narsa bo'limganida edi yaxshilikning qadri bo'larmidi? Atrofida yomonlikka oid hech narsa bo'limgan insonning yaxshilikni payqashi qancha vaqt ni oladi? O'sha kishi uchun endi hamma narsa odatdagidek, tuyg'usizdir. Holbuki hayot tuyg'ular bi-

lan bir butundir. Shu sababli yomonliklarni qo'limizing orqasi bilan bir chetga otib yubormasdan, undan bir tajriba olishga harakat qilish kerak.

Tuyg'ulardan biri yarim qolib, u bo'shliq to'lmasa, inson ham yarim qoladi, bus-butun tamomlanmaydi. Oyog'i oqsoq bir poyga oti kabi yashash bilan orasiga hech kimni suqolmaydi.

Navbatma-navbat aldanib barcha tuyg'uni totib ko'rasiz, tuyg'ularning sinovlariga doir nima bo'lsa barini... Navbat qaysi biriga kelsa, hech ham rahm qilmaydi, birdaniga tuyg'ularning ichiga sho'ng'ib ketsiz.

Qalbingiz qayg'uga duch kelmasaydi, baxtning qadrini bilarmidingiz? Shu sababli hayotning toshlariga qoqilib tushishingiz sizni mutlaqo oldinga yetaklaydi, chunki ortiq uyg'ongan va yo'lingizda yanada diqqatli holga kelgan bo'lasiz.

Tep-tekis emas, endi hayotga boshqa yo'llardan ham qaraysiz. Bir muddatdan so'ng qanday qilib yiqilib-qoqilmasdan qarshi tarafga o'tar ekanman der ekansiz, ko'plab rejalar tuzib qo'yaningizni payqaysiz. Tuyg'ular yana bir-biri bilan bog' qurdilar; umid havotir bilan, havotir baxt bilan. Har biri bir-birini qidirib topishi kerakki, xulosaga yetisha olishsin. Inson har narsa bilan bus-butun bir inson bo'la olishi kerak.

Inson hamma narsadan ham oldin nima qilmasligi kerakligini bilishi kerak. Hayotning ikir-chikirlari maktabda o'qitilmaydi, hayot sizga nima qilishingiz zarur ekanligi haqida so'zlaydi, nima qilishingiz kerak emasligi esa hech kimni qiziqtirmaydi. Hamma o'z yumushini boshidan aritish dardida yurgan bu dunyoda hech kim hech kim bilan qiziqmaydi.

Yashashni o'zimizga loyiq ko'rishimiz lozim, chunki shu tariqa boshqalar ham hurmat ko'rsata boshlaydilar. Top-toza va yap-yangi kiyimlar kiygan bir insonga ko'rsatilgan hurmat bilan bir ko'cha bolasiga ko'rsatilgan hurmat hech bir xil bo'ladimi? Albatta, shunday bo'lishi lozim, lekin dunyoda yashagan faqtina insonlar emas-ku. Insonga inson bo'lgani uchun emas, mavqeyiga, darajasiga, cho'ntagidagi puliga qarab hurmat ko'rsatadigan qoralovchi insondek bo'lmasligimiz uchun ham hamma narsani bilmog'imiz darkor.

Bir shirkatning rahbari bilan bir qog'oz to'plov-chiga ko'rsatadigan hurmatingiz bir xil bo'lishi kerakligi hech bir kitobda yozilmagan. Fazilat bir g'ala-badir, insoniylik bir tajriba, madaniyat bir ta'lmdir, hayot esa kattakon bir cho'pchakdir. Ha, cho'pchak dedim, chunki hamma bir xil tartibning ichida yasha-shiga qaramay, bu hayotni bir xil darajada poylasha olmayaptilar. Hayot deganlari cho'pchakdan iborat, ko'pchiligidimiz o'zimizcha nafas olyapmiz, lekin yashayotganimiz hech aytilmaydigandek munosabatda bo'lmayapmizmi? Chunki uning ichidagi axloq qonunlari dan bexabar bo'lgan insonlar mutlaqo hayotga yengiladilar. Shuning uchun siz hamma narsa va hammani shunchaki seving. Azobingizni ham dardingizni ham qadarlingizni ham seving. Chunki sevganda dunyo o'zgacha bo'ladi.

Nozik istisnolar

Dunyoni ovoz qaydiga yozib olishimiz kerak. Chunki hamma unutgan so'zlaridan azob chekadi. Shunday bo'lса-da, hamma narsaning qaytishiga qanoat qil-yapman. O'tib ketmaydi deganlarim o'tdi. Har bir yo'l-ning mutlaqo ortga yo'li bordir. Shu uch kunlik dun-yoda tuzatib bo'lmaydigan hech narsa yo'q, qilgan gu-nohlariningizni ham afvi bor. Ya Sattor.

Bizning quyoshimiz noumid kechalar ning tongida emas, o'sha kechaning qoq о'rtasida otdi. Biz baxtni ko'pincha duoda deb bildik, iymonda deb bildik. Hayotning peshonasidan o'pgandek, yaxshi inson bo'-lishga umid qilgandek... Okeanning ustida yolg'iz o'zi o'zgan bir sandaldek, to'lqin ko'tarilgan sari biz ham ko'tarildik. Yaxshi inson bo'lishning boshdan oxiriga-chaga qorga burkangan tarafi shudir.

Yaxshi insonlar hech qachon yo'qotmaydilar, at-rofida sodir bo'layotgan barcha yomon vaziyatlar uni yanada yuksaltiradi, aslo ichiga tortmaydi. Yaxshi narsalar birdaniga bo'lmaydi, biroz harakat talab qiladi. Chunki eng rohatbaxsh, eng hayajonli sayohatlar qad-di tik tog'lardan o'tganlaringizdir. O'sha tog'larni ko'-rishga urinishdan ko'ra, o'sha tog'larga sizni yetakla-gan orzularni himoya qilish kerak. Marcel Proust ni-

ma deganiga qarang: „Haqiqiy safar yangi joylarni ko'rish emas, yangi bir dunyoqarashga ega bo'lmoqlidir.”

Insonni hayotda ushlab turgan ba'zi nozik istisnolar bordir. Kimdir umri davomida bir qo'shiqqa tutinadi, kimningdir esa o'zicha nomlagan kitoblari bordir. Kimningdir hayoti plastinani tomosha qilish bilan o'tadi, kimdir esa kasseta lentalarida qolib ketgan.

Men nozik istisnolarimning hayotga nisbatan katta ekanligiga ishonch hosil qilganimda endigina o'n to'rt yoshda edim. Kechirish tuyg'usi meni bir bayramdek kutib oldi. Men kechirish bilan ulg'aydim, avval o'zimdan boshladim. O'zimning qarshimga chiqib men o'zimga nohaqlik qildim deb o'ylagan hamma narsani kechirdim. Ba'zida bir kiyim atelyesida, ba'zida esa yoshimga yarashmagan, haddimdan katta bo'lgan peshona terini to'kkan go'zallik salonlarida bo'yni egilgan bolaligimni qoldirdim. So'ngra insonlarni kechirdim, go'zal kunlarimda oyog'imdan chalganlarida. So'ngra sodir bo'layotgan narsalarni boshimdan kechirayotganimda taqdirimni kechirdim. Bu inson axir, baribir kechiradi. Chekkan shuncha azoblariga qaramay, barini kechirib yuboradi. Hech bir hijoyada osonlikcha baxtga erishilmaydi. Go'zalliklar sizga osmondan tushmaydi. Ba'zan hayot qadrini tirnoqlaringizning ichi kir to'lgunicha kavlash kerak.

Bildimki, kechirish ruhni yengil qilar ekan. Siz kechirmaguningizcha sizni o'z hayotidan quvgan insonlar hayotingizda osilib turaverishadi. „Sevish davolaydi“, deganimiz aynan mana shu. Hamma narsani, turli xil vaqtarda turli xil joylarda bundan oldingisini unutganingizda davolaydi.

Ortingizga qayrilib qaraysiz, chekkan azoblarining
ning mukofoti, boshingizni yelkasiga suyagan bir umr
yo'ldosh, siz minglab insonlardan qozongan muhab-
bat va yana ko'plab narsalar yuragingizning o'rtasiga
joylashib oladi. Qalbingizdan samoga ko'plab shukr
duolarini navbatga qo'yayotganingizda, qo'lingizni
ochgan har bir ominda siz uchun qilgan insonlarning
samimiyatini ichki meningiz mahkam quchib oladi.
Butun insoniyligingiz bilan duoga o'tirasiz. Qayerlar-
adir bo'yni egilgan, mahzun insonlar bo'lsa duolari-
ngiz bilan quchoqlaysiz, oyatlarning go'zalliklari bi-
lan yuraklarini o'pasiz.

Abobillar fillarni do'pposlaydilar!

Bizda Alloh istasa qushlar fillarni yengadi, U xohlasa chumolilar tog'larni teshadilar. Alloh istasa koinot qaytadan yaratiladi va butun hikoyalar qaytadan boshlanadi. U xohlasa tuproq qaytadan jonlanadi va qurigan daraxtlar qaytadan jonlanadi. Yaratgan egam o'rmonlarga teng duolarni to'plagan ko'nglingiz san-chiqlarini qaytadan so'ndiradi. Xohlaganida qalbingizga qayg'u berib duo darvozalari tomon chorlaydigan Rabbingiz, bir amri bilan ko'nglingizni tinchlantirolmaydi deb o'ylaysizmi?

Quyoshning qalbingizga rahmat eshiklarini ochgan, qalam og'riqlariga huzur bergen va uyqusiz tun-laringizni tugatgan, Rasululloh (s.a.v)ning qo'shiniga Badirda umid bergen Rabbim mutlaqo o'sha urug'dek katta bo'lgan qalbingizning qirg'oqlariga ham salqin suvlarni jo'natadi.

Yuzlab, hatto minglab ishga yaramaydigan so'zning bir yerga to'planishi bilan paydo bo'lgan va orsiz madhiyalarning qoidalari bilan oyoqda qolgan dunyoda bir dirham samimiyat qidirish uchun yo'lga chiqmoqchi bo'lganiningizda barcha eshiklar ochiladi, avval ochilishiga ishonish kerak.

Yashashning tamal toshi iymon ekan, fillarning shuuri ishlamay qolishi bir buyruqqa qaramaydimi?

Xohlaganida qushlardan qo'shinlar paydo qila oladi-ganga sig'inganida, insonning bu dunyoga oid qo'rqa-digan nimasi ham qolardi?

Ustiga-ustak nafas olishingizni osonlashtiradigan so'zlar va o'gitlar bermadimi Rabbingiz. „Rabbingiz fil egalariga nima qilganini ko'rmadingizmi? Ularning tuzoqlarini puchga chiqarmadimi? Ustlariga gala-gala qushlar jo'natdi. Ularga loydan qotgan toshlar otayotgandilar. Va ularni, yegilgan bug'doy yaprog'i-dek qildi“, demadimi?

Bir avliyo shunday degan ekan: „Agar Rabbingiz bir insonni eshigida ko'rishni xohlamasa, kelib yolvormasin deya unga tilagan hamma narsasini berar ekan. Sevganlariga esa qayta-qayta yiqlishlar ko'rsatadiki, menga duo qilishni aslo unutmasin, eshigimdan ko'zlarini ayira olmasin. Naqadar haqiqat, shunday emasmi? Ayni damda shuncha g'am va qayg'uga Rabbingizdan kelgan bir xabardek qarasangiz, ko'ksingizni siqqan o'sha qora bulutlarga abobillar jo'natmaydimi?

Har bir inson o'z osmonining abobil qushidir. Mana sizga eshik, xalos bo'lish aynan mana shu yerda. Mana sizga yo'l, shu yerdan yuring. Mana sizga kuch, shu bilan oyoqda qoling. Mana sizga badan, shu bilan chidang. Mana sizga aql, shu bilan o'ylang va yana minglab lutfi bilan minglab abobil bergen Rabbingizdan qanday qilib uchadigan abobilni kutyapsiz?

Insonlar yagona bir aybingiz bilan butun go'zal o'tmishingizni o'chirib tashlashar ekan, Alloh bir tav-bangizga butun yomon o'tmishingizni o'chirib tashlaydi. Shundayin bir mardlik, qalbingiz tiqilib qolgan tomirlarga ortiqcha emasmi? Abadiyatga qadar taslim bo'lishga urining, bundan kim nimani yo'qotadi?

Ertalablari ichingizdagi bahorlarning himoyachi-si bo'l mish Rabbingiz ismi ila uyg'oning. Qarang, shaharning ko'chalarida mashinalar qanday oqyapti, samoda qushlar, ko'chama-ko'cha qushlar mavsumlarni qanday quvyapti. Bir daraxtning bargiga qaraganingizda, yuzingizga tushgan bir tomchi yomg'irning abobil ekanligidan kim qanchalik xabardor? Ham siz parvonaga aylanib uchayotgan bu dunyodan tuproqqa olib ketadigan nimangiz bor?

Derazasidagi tuvaklarda gullar o'stirmagan va hech bir qushning qanot qoqishiga bir bora tabassum qilmagan insonlardan tuzilgan tartibni bir chetga otishning vaqtidir. Yam-yashil qirlarda yugurishning vaqtidir, oppoq qorlarda, qah-qahlarda, ko'llarda dengizlarda. Abobillarning sanog'idek to'plagan umidlarimizdan hayotning tumanli urishlarida qurol sifatida foydalanishning vaqtidir. Bu urishni yengamiz. Ko'ksimizda umidlar jon bersa, ularga abobillar jo'nata digan ertalar mutlaqo bordir. Orzu derazalari-miz ochilar ekan va kitoblarga sig'ingan ekan; moddar dan chiqib ma'noga yo'naliш, unda inqilob etishning vaqt keldi, demak. Hayotimiz yaproqlarning burishgan tarafidan sahifama-sahifa o'tar ekan, hamma narsaga atayin bizning ko'zimiz keyingi sahifada bo'ladi.

Agar hamma narsamiz bilan bu dunyoda och qolsak, juda ko'p sevishdan, ko'p duodan va umiddan ochko'z desinlar. Sevgining birlashtiruvchi va davolovchi kuchiga tutunishimizning o'zi kifoya. Ichingizda to'xtamay qonayotgan yaraning shifosi balki keyingi sahifadadir, ochib ko'rmasdan bilolmaysiz. Bir kitob hech ochilmagan bo'lsa, boshdan oxirigacha o'zingizga bo'lgan xiyonat va iskanjadir.

Bir qo'shiqning sizni olislarga olib ketishidek, bir she'rning qalb tomirlaringizga sig'inishidek sanab bo'l-maydigan nima bo'lsa abobildir. Har bir kitob, har bir so'z sizni zehningizning qamoqxonalaridan qutqarish-ga da'vat qilgan Rabbingizning bir ishoratidir. Yo'qsa uni sizga ro'baro' qilgan kim bo'lishi mumkin?

Sevishdan boshqa dardimiz nedirki, dunyoning dardi haqida qayg'uramiz. Insonni mutlaq sevgi davolashini bilmaymizmi...



*Men endi, hatto o'z aqlimga ham kelmayman.
Dunyodan o'chib ketmoq nima deganini
Suyak-suyagimgacha his qildim.*



*Gina tutish insonning ichida vaxshiy
bir ko'ppakdek, har tarafingizni tishlab tashlaydi.*

*Biz davolanib, sevib, umid qilib, ham
dunyoqarashimizni, ham dardimizga bo'lgan
munosabatimizni o'zgartirdik. Hamma narsaga ha
deyishga majbur bo'smaganimiz uchun ham baxtli bo'la
oldik. Chunki yo'q deya olish, kishining hamma narsadan
ham o'ziga nisbatan hurmatini tavsliflab beradi.*

*Hurmat, o'zi bilan birgalikda o'z menligini va o'zini
haqiqatga aylantirishni olib keladi. O'zingizni haqiqatga
aylantiring, butun ip uchlari qo'singizda.
O'zingizga ishonishdan aslo voz kechmang.*

Nega?

Menga o'rgating, kuchi yetadigan bo'lsa qarshimga chiqib menga o'rgatsin, hayqirib yashashdan voz kechish qanday bo'ladi! Olgan nafasimizni javobsiz qoldirish bizning haqqimizmi? Meni xuddi men hech narsadan dars olmagandek bo'ynimni egdirishga harakat qilib ko'rsinlarki, ularga yashashning baland-pastini ko'rsatib qo'yay, bir kalima aytib ko'rsinlar-chi, qalamim kimlarga tegishini ko'rsataman. Birin-ketin haya-jon bilan takrorlanayotgan kunlar kimga qiyinchilik tug'diryapti? Menga bu ko'ksim to'la ishonchimni bahshida etganga abadiy hamd-u sanolar bo'lsin va ontim bo'lsinki, mening harakatim Unga loyiq bo'lishdir. Ko'rinishning ortidagi qalbga diqqatini qaratmaganlar avval ko'rib, keyin gapirsinlar, agar gapira ol-salar. Ba'zan insonlarga orqadan muhokama qilish osondek tuyiladi. O'ziga ishonchi bo'lgan har bir inson; qo'polliklarni, itoatsizlikni va o'zlarini unutishni, hayotga kelish sabablariga xiyonat qilganlarini farqiga bormaganliklarining qarshisida, albatta, qadlarini rostlab turadilar.

Ichida ufurib turgan go'zallik va jirkanchlik bus-butun bo'lib birgalikda yashashga ko'nikkanlarida: „Bu qoida nimasi?“ deya qadarimning zulmatida ko'ngil ochish uchun oyoq tirab olay. Mujodalam yaxshilikka,

go'zalikka va sevgigadir. Men bunday axloqsizliklar bilan hayotni o'rGANmadim, men yangi kunning pardalaridan mo'ralayotib bunday xiyonatlarga duch kELmadim.

Barcha narsani mavhumlashtirib, bu odatiy oqimda o'zimga yap-yangi utopiyani qurdim, unga ishon-dim. Ichida juda ko'p sevgi, juda ko'p fazilat, juda ko'p ilm, rivojlanish istagi bo'lgan yap-yangi men. Ora-chora bizning taraflarga yo'li tushgan, qayg'u bilan tiqilib-siqilib to'lgan bu hayot avtobusida, siz puchga chiqqan xayollaringiz haqida so'zlar ekansiz, biz alla-qachon ma'qul bir joyda tushib qolgan edik. Hozir kimdir chiqib, hayotning ta'rifini aytsin, agar ayta olsa? Zinalardan uchtalab, beshtalab chiqish mumkin ekan, nega yiqilib tushgan joyimizda qoqilib tushamiz? Kimdir chiqib tushuntirib bersin.

Bizlarni ham dardlarimizdan qutqargan, ham davolagan nima?

Qizildengiz Musoga nega ochildi? Nuh to'fonida Rabbim suvgaga nega to'xta dedi? Hazrati Ibrohim otashdan nega qutqarildi? Hazrati Ismoil pichoqdan nima uchun qutqarildi? Hazrati Yusuf quduqdan nega chiqdi? Hazrati Ayyub tuzalmaydi deb aytishgan hastalikdan nima bo'ldiki, tuzalib ketdi? Bizlarni dardlarimizdan qutqargan, yaxshi qilgan kim?

Kim nima qilsa, oldiga chiqdi va chiqishda davom etadi. Avval yoki keyin. Yaxshilik qilgan topadi, tavakkal qilgan qutiladi. Sevgan sevgi bilan mutlaqo yaxshilanadi. Zarracha yomonlik qilgan javobini olmaguncha bu dunyodan kuzatilmaydi.

Hayotingizda hamma narsaning bus-butun deb o'yagan, ichi bo'shagan bir shishani hovuchida siqib, axlatga otgandek insonlarning tuyg'ularini ham axlat qilgan, ortiga qaramasdan, e'tibor bermasdan beg'am-larcha bosib o'tganlar, albatta, charchamaydilar.

Qashiganda ko'payadigan bir yaradek ortaveradi. Sinov o'z joyini topishi uchun ham bular sodir bo'lishi kerak. Bizning ishimiz bular bilan emas, Yunus aytganidek, Mavlono aytganidek, daholarning, avliyolarning, adabiyotchilarning, payg'ambarlarning, barcha mutaxassislarning aytganidek, bizning ishimiz se-

vish bilan, dardimizni dardi deb bilganni sevish bilan, tabbasum qilishimizni istaganlar bilan, jonimiz azoblanganda joni azoblanganlar bilan.

Masala qadriga yetmaganlarga orqamizni o'girishimiz emas. „Aqlimiz chiday olmayapti, nima bo'lsa bo'lzin, insonlardan uzoq turaylik“ ham emas. Masala haddini bilishda, masala odobini bilishda, masala go'zal narsalarni ko'nglimiz tusashida, masala sevishda...

Bu joningizni azobga solganga quchog'ingizni oching degani emas. Bu hamma narsaga tishingizni tishingizga qo'ying degani emas. Bu: Sizni ranjitganni o'zingizdan uzoqlashtirmang, fazilatingizni kamolga yetkazing. Boshingizga tushgan har bir yomonlikka sharsharadek gurillamasdan oldin bir muddat sukul saqlab fikrlarni jamlab o'ylang va nimaning to'g'ri ekanligiga qaror qiling. Qaysi harakatingiz sizga yarashganiga va o'zingizni qanday sevishingizga.. Agar buning aksi bo'lsaydi, g'azabga g'azab bilan javob bersaydi, butun insoniyat, Yunuslar, Mavlonolar, payg'ambarlar va yana ko'plab insonlar bizga shuncha o'gitni nega meros qilib qoldirishgan? Men ulardek bo'laylik demayapman. Ularning zarrachasini o'rnak qilib olsak, zotan, hamma narsa go'zallashmaydimi? Men aql bilan yuring, sevgi bilan o'ylang, sabr bilan tushunib uddasidan chiqing deyapman. Chunki sabr qilmasdan harakatga tushgan hamma narsa qalbingizni charchatadi, xursandchiligi ham qayg'usi ham... O'yaniib bajarilayotgan har bir harakatning natijasi inkor bo'lib sizga qaytadi.

Yuragingizning burchaklarini tanib olish uchun o'zingizga bir fursat yarating. O'zingizni yanada yaxshi, yanada tinchlangan, yanada kuchlangan his qili-

shingiz uchun yetishmayotganni qidirishni boshlang. O'zingizni kashf qilishning har bir pog'onasida o'zingizdan shuni so'rang: „Nima qilsam, qanday munosabatda bo'lsam va qanday yashasam, yanada huzurli bo'laman?”

Boshimizga kelgan, biz tasodifan qarshilashgan hech bir mavhumlik uchun majburlab yaxshi bo'ladi deb urinmasdan oldin va hammaga „ha„ demasdan oldin, qalbingizga „ha„ deng. Qalbingiz nimani istayotgan bo'lsa, uni tasdiqlang. Qalbingizdan o'tayotganini zehningiz tasdiqlayaptimi? Unga „ha„ deng. Hayotga „ha„ deng. Taslim bo'lishga „ha deng.

Ana endi keyingi pog'onaga o'ta olasiz: „Hozir nima qilishim kerak?” pog'onasiga. Havo har doim ham quyoshli bo'lmaydi. Insonlar har bir maktubingizga o'sha zahotiyoy qaytarmaydi. Har bir istaganningizga yetisha olmaysiz, hamma narsani qo'lga kiritolmaysiz. Siz istayabsiz deb, dardlar ortga chekinmaydilar.

Agar muammolarga va mavhum narsalarga qaytadan chidashga kuchingiz yetmaydigan bo'lsa, ichetingizni yeb bitirmang. Dardlar holdan toygunicha qiynamang. Boriga qanoat qiling. Biroz dam oling, so'ng qolganlari bilan mashg'ul bo'ling. O'zingizga vaqt ajrating. Dardlarni zudlik bilan tugatishga urinish uni faqatgina uxlatib qo'yadi. Biroz nafas rostlang. Siz qabul qilgan har bir tushunchaning ichida mavhumlik ufurib tursa ham bu bir mag'lubiyat emas. Buni idrok qiling. Boriga shukr qilishni afzal ko'ring va o'zingizni sevishdan voz kechmang. Eng ko'p sevgiga „ha„ deng.

Natijasi nima bo'lishidan qat'i nazar o'zingiz bo'lishdan va o'zingizni sevishdan voz kechmang. Balki,

ko'p narsani taklif qilolmadingiz, ta'mirlay olmadingiz ammo o'zingizni sevar ekansiz parchalangan yuraginenzizni tuzatishga yetadigan darajada kuchingiz qoladi. Menga ishoning va qaytadan hayotingizni qoldirgan joyingizdan davom ettiring. Ko'proq shukr qiling.

Katta janjallar, katta mag'lubiyatlar, og'izga olinmaydigan haqoratlar hafagarchilikni keltirib chiqaradi. O'zingizda. Qalbingizda. Zehningizda. Siz g'alaba qozondim deb o'ylaysiz. Holbuki, bir bora boqish hamma narsadan sovib ketishingizga yetadi. Siz oynada ko'rgan bir qarashdir asl haqiqat. Zotan, hamma bir-birini barchasi yaxshiligida sevadi. Hatto siz ham o'zingizni hamma narsa yaxshiligida sevasiz.

Inson va hayot judayam ajoyib. Kun kelib anglaysizki, siz mag'lubiyat deb bilganingiz aslida sizning qaytadan kashf qiliningiz uchun bir zafardir. „Ba'zi narsalar yaxshiyam sodir bo'lmabdi”, deysiz. O'z vaqtida bo'limgani uchun sizni aqdan ozdirgan narsalar kun kelib sizga huddi mukofotdek tuyiladi. Eng katta adashishlar o'zingizni sevishga va sevgining davolovchi kuchiga tutinishni uddasidan chiqsangiz, sizga zafarlar olib keladi.

Vaqtning asl egasi, makonning asl egasi, nimani qanday bo'lishi kerakligining asl egasi kun kelib siz uchun eng yaxshisini bir onda oldingizga tortiq qiladi. Mana shunga erishish uchun voqealar ichidagi ahvolingiz, og'zingizdan chiqqanlari, siz atrofga yoygan hamma narsa qayd qilinib boriladi, unutmang. Siz haq bo'sangiz ham, qarshingizdagи qarg'ishlarning eng kattasiga loyiқ bo'lsa ham unutmang, kimning qadri qanchalik ekanini biz bilmaymiz. Bilganning g'a-zabini keltiradigan narsalardan o'zimizni tiyar ekanmiz sevgi bizni davolaydi.

Chuqur yara olmaganlar, boshqasining chuqurligida bo'g'iladi

Yaralanishdan qo'rwmang. Yara tuzalganida butun ruhni kuchga to'ldirib tuzaladi. Shu sababli jarohatlanish ayni paytda kelajak uchun yaxshilanishdir. Inson balki o'sha zahotiyoy buni fahmlay olmaydi, biroq bir muddatdan so'ng hamma narsa va hamma o'z yo'lida ketadi. Voqealar turli xil bo'lsa-da, o'gitlar doim bir xil bo'lib qolaveradi. Sizdan oldin yurilgan yo'llar bo'ladi. Kim avval yurgan bo'lsa-yu va sizga u yo'ldan bormang desa, oyog'ingizni qo'lingizga olib o'sha yo'l tomon chopmang, boshqacha intihoni kutmang.

Boshqa insonlarning chuqurligida bo'g'ilmaslik uchun o'z chuqurligingizda gullar o'stiring. Nafsingizga sabrni o'rgating. Yolg'iz qolmaslik uchun yanglish insonlarga qalbingizni ochmang. Siz avval o'zingizni o'rganining. Agar o'zingizni o'rganmasdan boshqa insonlarga bog'lanib qolsangiz qichqiriqlar bo'g'zingizda turib qoladi.

Nimaga duch kelganiningizni bilmasdan turib, o'zingiz bilan tanisha olmaysiz. Bir xil so'zlarni takrorlashda davom etaversasiz. „Men bunga loyiq emasman”, deganiningizda har doim o'zingizni kashf qilasiz.

Hayot sizga o'rgatishni istaganlarini siz hayotdan sovib qolmasiningizdan o'rgatishiga ruxsat bering.

Siz buni sezmaysiz, biroq insonlar sizga shunday deyishadi: „Men aytgandim”

Qiying vaziyatga tushmaguningizcha hech bir insonning qandayligini ko'rolmaysiz. Yaxshilikni odamgarchilik yuzasidan qiling, faqat undan biror nima kutmang, Men juda sevgan va hayot falsafasi sifatida qabul qilgan bir ibora bordir: „Ko'rning ko'zi ochilganda birinchi sindiradigan narsasi uning hassasidir”. Albatta, bir yo'lini topib sizni sindirishadi.

„Siz yordam bergen har bir inson kun kelib oyoqqa turishganida sizni mutlaqo ranjitishadi”, deydilar. Albatta, bu sizning qay darajada yaqinligingizga ham bog'liq. Chunki oldingi holingizga qaraganda qay darajada ulg'ayganiningizni ko'radi. Insonning yoshi ulg'aygan sari iymanmasdan hayotga so'zlarni sarflashga urunishidek. Sevgisizlikning bu quruq landshaftidan hamma nasibasini mutlaqo olgандир.

Ko'r insonga ko'z bo'lmanq demayman, lekin agar bo'lsangiz ham bu sizning yetuk bir inson ekanligingizni ko'rsatadi. Sevgi, hech narsaga qaramay g'ururlı bir qalbni davolaydi.

Hayot bilan suhbatlash...

Hayotingiz davomida oshib o'tgan butun to'siq-larga, qozongan butun muvafaqqiyatlarga yoki yo'-qotganlaringizga aldanib, o'zingiz kabi bo'lishdan voz kechmang. O'zingizga va atrofingizdagilar bilan murosalar xarakteringizdan boshlab asl o'zgarishni ko'r-satadi. Chunki doim murosa murosani dunyoga kel-tiradi.

Siz o'zingizni, o'zingizga qaramay sevgandirsiz, chidagandirsiz. Oilangiz sizning har qanday holatingiz-ga ko'nkishgan va shunday sevishgandir. Do'stlaringiz ora-sirada ahmoqliklar qilishingizdan xushnud-dirlar. Xursand va hayotga oid orzulari bitmas-tugan-mas bir insondirsiz. Ba'zilar to'satdan chiqishlaringizga oshiq bo'lishgandir. Shuning uchun o'zingizga hech qachon murosa qilmang chunki hayotingizdag'i hamma sizni siz bo'lganiningiz uchun, shunday yashashga diqqat qaratib oyoqda qola olganiningiz uchun sevish-gandir. Bir qalbni tilka-pora qilmagan bo'lsangiz, bir mazlumni xorlamagan bo'lsangiz, o'zingiz bo'lishda davom eting: yangilanib yanada yaxshilanib, go'zal-lashib.

Bir hikoyani yana boshidan boshlash oson emas. Yoshingiz yigirma besh yosh bo'lsa va agar to'qqiz ming bir yuz yigirma besh betlik romanni yana bo-

shidan yozish, har bir insonga birma-bir o'qib berish, tushuntirish hech oson emas. Agar o'zingizni o'zgarishga majburlasangiz atrofdagilaringizning sizni qaytadan tanishlari uchun vaqt kerak bo'ladi. Bu, bir muddatdan keyin sizni yolg'izlik sari, albatta, yetaklaydi. Balki, bu holingizni umuman yoqtirmaydiganlar bo'lar. Navbatma-navbat umidsizliklar sizni qarshilaydi, ko'pincha puchga chiqqan xayollarining girdobiga tushasiz. Bir guldan moychechakning iforini hidlash hammani naqadar hayratga solishini taxmin qila olasiz.

Hayotningizni, qarorlaringizni, orzularingizni va maqsadlaringizni ta'mirlashga urinishdan ko'ra to'satdan o'zgarish uchun fikringizni jamlab, axloq, odob va xarakterdan boshqa joylarga ko'chsangiz, buning xulosasi qay darajada zavq berishini yashash davomida bilib olasiz. Benuqson hayotning o'zi yo'qdir. Hatolari yo'q insonni hali ko'rmasidim. Agar qaytadan boshlaydigan bo'lsangiz o'sha xatolarga ham duch kelishingizni unutmang. Har bir bola insoniylik halqasidan o'tayotganda, ma'lum bir yoshgacha ko'pgina yomon holatlar shohidi bo'lgan bo'ladi.

Shuning uchun o'zingizning qarshingizda turib, o'zingiz bilan gaplasting „O'zgarishi kerak bo'lgan narsa nima? Ko'proq nima uchun hayotda qolish uchun tirishyapman? Hayotning haqiqatlari bilan naqadar mos tushaman?”

Ming xil

Masalan mana shu hayotda ming xil inson mavjud. Ming turdag'i insonning turli-tuman kurashi bordir. Kim bilan urishsangiz urishing, kim bilan boshingizni qotirsangiz qotiring, unutmang siz yenga olmaydigan yangona kishi „Aslo voz kechmagan”dir. Yengilgan pahlavon, albatta, kurashga to'ymaydi, lekin har bir yengilishda o'sha pahlavon yana bir marotaba qanday yengilmaslikni o'rganib olishini ham bilishimiz darkor.

Bu hayotda ko'pgina narsa qiyin bo'lsa-da, imkon-siz bo'lishi mumkin emas. Chunki sharoitlar har doim, har davrda, hatto har kunda o'zgaruvchadir. Lekin shunda ham sinab ko'rish, muvaffaqiyatning yarmidir, deydilar. Chunki ayni damda qilayotganlaringiz hali ertaga butun hayotingizni, butun orzularingizni o'zgartira oladi.

„Orzuni axlatga tashlash“ degan bir ibora bor. Biz qo'lga kiritilgan va erishilgan orzularning eskilik sarqit bo'lishidan voz kechishimiz lozim. Uning eva-ziga kurashib, erishgan orzularingizni axlatga tashlab, yangi orzular sari harakat qilishimiz darkor. Chunki doimiy muvaffaqiyat, takrorlanadigan narsalarga yaramaydi. Biz u tomon reja va taqdimotlarimiz bilan borishimiz kerak.

Insonlardan nimani xohlashlarini va nimani kut-

yotganliklarini aslo so'ramang. Chunki hech kimning ishchisi emassiz. Siz o'rtaga bir fikr tashlang va shu orqali yo'lga chiqishni ma'qul ko'ring. Siz o'zingizga ishonmas ekansiz, boshqalar sizga qanday qilib ishon-sin?

Har nima bo'lsa-da, balki har birimiz o'n yillar avval bir ishda tamal toshini qo'yaganligimiz uchun pushaymondirmiz. Biz juda sevgan bir ishga jasoratimizni to'plab qadam tashlay olmaganimizga, yillar o'tib bir qadam tashlagan bo'lsaydik deb orzu qilamiz. Yo'qotishdan qo'rqishga hojat yo'q, eng kamida ichingizda tugun bo'lib qolmaydi. „Hech narsaga qaramay urinib ko'rdim“, deyish, „Bu masala haqida hech qanday fikrim yo'q“, deyishdan yaxshiroq. Avval o'zingizni kashf qiling, keyin jasurlik bilan butun ko'chalariningizi yoriting. Bu dunyoni tark etayotganingizda eng kamida daftaringiz go'zalliklar bilan to'lsin.

Hazrat Ibrohimga suv tashigan chumoli misol, yel-kamizda tog'lar bo'lsa-da, ichimizda bitmas-tuganmas bir umid... Naqadar to'g'ri shunday emasmi? Umidingizni yo'qotmangki, imkoniyatlarning qay daraja oz yoki yetarsiz ekanligi o'zini oldinga chiqarib qo'ymasin.

Qarorga ega bo'lish hech kimga hech narsa yo'qtirmaydi. Bu ish hayotingizda ham, ishq hayotingizda ham bir xildir. Masalan, kimnidir sevasiz, jasur va qarorli bo'lmas ekansiz, qarshingizdagini o'zingizga ishontirolmaysiz. Ishonch bo'lmasa, inson nimaning ustiga tamal toshini qo'yishi mumkin? Hayotning tartibi shunday; savol bermasdan yashash emas, hamma narsani me'yorida so'rashingiz lozim!

***Bajaradigan ishlarida beqaror bo'lgan kishilar
yugursalar ham boradigan joylari ko'ra
olganlarigacha.***

***Holbuki, tortishuvlar xonavayron bo'lib, uyg'ongan
birining joyini kim hisob-kitob qila oladi?***

O'z tubida yarani saqlab kelayotgan yosh qiz qalbi tilga kirdi

Lekin endi charchaganman, holdan toyganman, endi men bilmagan uzoqlarga ketishim kerak. Olgani bo'lsin dunyoning. Vaqtida naqadar ko'p yig'ladim azob chekishdan, hamma narsani o'zimga dard deb bilishdan. Ustimdagi ko'z yoshni, qayg'u va azoblarga oid hisobi ko'rilmagan nima bo'lsa, men qo'rqb yoki cho'chib berkitgan, kechiktirgan hamma narsani ola qolsin. Hatto, dardimni aytishga ham erinyapman. Navbatma-navbat yugurib, ertalabgacha butun muammolarini eshitib, yechim uchun yelib-yugurgan do'stlarim ham meni tushunishmaydi. Tushuntirishga urunib ko'rdim, ammo tushunishmaydi, bilaman. Biroz bosidan tushuntirishga tirishdim, birdaniga diqqatlari boshqa joylarga, o'z hayotlariga qaratildi. Tinglayotgandek bo'm-bo'sh nigoh bilan qarab turishdi xolos.

Qalbim og'riyapti, dunyo ortiq eskisidek emas, oydin tonglardan voz kechgandek, nafasim qisilyapti. Va vaqt bilan birma-bir meniki deb o'ylagan hamma va har narsa mendan uzoqlashyapti. Har bir ketganlar, yuragimga og'ir bir musht tushirib ketdi. Og'riq bosuvchi dori ichsam, yuragimning og'rig'i kamayadimi? Hozir kuching bo'lsa chida qalbim, chida.

Singan qalblardan vaqt o'tishi bilan suv oqadi, ko'z qovoqlaridan yashirib har bir tomchisini yuragim bag'rige bosadi, ammo o'z-o'zimni bu tarzda ovuntirish tasalli bo'lolmaydi. Yashash Allohga omonat ekan, bu oyog'i singan kunlarda hech narsaga qaramay, javobini faqat ikki kishi biladigan savollarni yod oldim: men va o'zimni ko'rib turgan holim bilan men! Yuzini to'shakka ko'mib, soatlab yig'lagan qizlarning ohini kim o'z zimmasiga oladi? Bizning butun qadamlarimiz uyga baxtsizlik olib keladi, yashashga qarab yo'nalsak bizga faqatgina qoldiqlar uchraydi. Bu be-parvoligim nimadanligini bilmayman. Hamma narsani o'zimga dard deb bilishim nimadan? Jim bo'l qalbim. Jim, jarohatlanganim yetadi! Chida qalbim yana biroz chida.

Tabassumimiz hayot oqimiga qarshidek go'yo. Oldinma-ketin hech narsaga ahamiyat bermasdan ucha-yotgan qushlarning ham boshini ko'tarib qarashga majollari yo'q. Faqatgina kulamiz. Bo'lar-bo'lmasga, hamma narsaga kulgilarni sovuramiz. Hayotning „Menimcha bu yerlardan ketsam yaxshi bo'ladi“, degan tarafida qotib qolyapmiz, lekin atayin hech nima bo'limgandek kulgilarni sovurishda davom etamiz.

Yosh qiz qalbi eng kamida qancha she'rni yoddan biladi, bilasizmi? O'sha kichik yurakka qancha mag'lubiyat sig'adi? Bir qalb umri necha Sezen Aksu (mashhur turk qo'shiqchisi)ning qo'shiqlari bilan to'la oladi?

Yosh qizning singan qalbini sevishga uringanlarining ishi nega qiyinligini bilasizmi? Avvalgi charchab yiqilishga qarshi uzr so'rashdir yosh qizning qalbi. Uni davolashga yurak kerak. Uning ko'z yoshlari yaraga

bosiladigan paxtani ham ushlamaydi, ichida umidlari bordir. Uning sochlari yong'inlarda yonmaydi, ich-ichida yig'lagan kechalari bordir. „Men bajara olmadim“, deganda qochadigan joy emas uning qalbi, atrofida devorlari bordir. Yo'qolib qolishga sharoit yaratmasdan sevilishi shartdir.

Hayot sendan uzr so'rayman, ustimni yopmadim va uxlamadim bu kecha. Manmanlik orsizlarga xosdir, haddidan oshganlarga. Umidsiz yotgan barcha yosh qizlar nomidan uxlamadim bu kecha. Xonamning eng qorong'i tarafidan dunyo uchun duolar yoqdim. Yig'-lashni keyingi kechaga qoldirishdan voz kechib va hayotga doir tomosg'imda tiqilib qolganlarning har birining xayri uchun alohida-alohida soatlab yig'lagan qizlarning nomidan ustimni yopmadim va uxlamadim. ZOTAN, yillab oyoqda uxlamadikmi? Bu uyqusizligimiz shundandir. Yosh qizlarning yig'i seanslari bordir bu tinch turmagan hayotdan ranjigan paytlarda. Endi qayerga qarasalar insonlar doim ular qaramagan tarafdan savol beradilar. Shosha-pisha ranjitishni buyuk bir qobiliyat deb biladilar. Og'izlarida qora saqichlar ni chiqarishni g'urur deb biladilar. Kesatib, haqorat qilib senga ko'rsatdik deyishni biladilar.

ZOTAN, insonlar hamma narsni biladilar, ammo birgina hadlarini bilmaydilar. G'ururni, umidlarni ertalarning ustidan beparvolarcha ezib o'tilgan barcha qiz va ayollar hurmatiga, buzilgan davrning shovqin-suronga, oqibatining eng qorong'i taraflariga qaramay, barcha qizlar nomidan senga sig'inamiz Rabbim. Sen javohirlaringni asra va ketishlarga, yo'qotishlarga qarshi bo'lmaganimiz uchun bizni afv et.

Yaralangan joyimdan hayotga gullar ochdim

Uzoqdan qaraganda beshafqat va biroz qo'pol ko'-ringan hayot; meni tirnoqlarini tartibga solishni unutgan va shuning uchun ko'ngli xira bo'lgan bir ayoldek, nozik detallar bilan charchatmaganing uchun minnatdorman. Bo'sh havaslarning diyoridan o'tayotganimda, tepada turganlarning pastga qarashdan qo'rqqanlarini ko'rdim, pastda yurganlarning esa ko'zlarini yuqorida ekanligini.

Men chiqqan yo'l yuksak bo'lsa, kim uchun yuksak? Sizga ontim bo'lsinki, unga yuksaklik tushunchasini qo'shadigan menman. Ayni damlarda siz sovurgan birgina tirishishning ichida sog' qolganim uchun shukur qilyapman, ma'lumki yana bir ildiz otadigan urug'im umidlarimning tomirlaridan bo'ladi. Boshimdan kechirayotgan har bir soniyam keyingi daqiqlarga qovushish uchun bir fursatdir, buni bilaman. Bar-chasi, albatta, chiroyli bo'ladi.

Va hozir orzularim bir parchasi hanuz namoyish qilinmagan bir filmdek shunchaki hayajon baxsh qiladiganki, bilmayman hozir o'z yo'limning qayeridan?

Yaralangan joyimdan hayotga gullar ochdim.

Yaralangan joyimdan yoshardim, ildiz otdim.

Bugungi men, bu holga kelgunicha nimalarni boshdan kechirganini bilsangiz edi. Hayotga qarshi turish oson emas. Hech qachon oson bo'lmaydi ham bilaman. U yerdan qaraganda qanday ko'rinyapman bilmayman, lekin gulimning tikanlarini kesib tashlaganimga ko'p bo'ldi. Yoshimga yarashadigan bir shaklda, ko'rishni bilganga umid, his qilishni bilganga o'gitim bor. Hali gapiradigan ko'p so'zim, qiladigan ko'plab xayrga to'la ishim bor, sevgi bilan bag'rimga bosaman.

O'zimni kuch sohibiga omonat qoldirdim.

Barchasi qiziqishdan boshlanadi

Tajriba bilan mustahkamlangan takliflar yetarli bo'limgan joylarda qiziqish bilan hayotga yangi derazalar ochamiz. O'z haddini bilgan qiziqishlar, hayot tarzimizga bilim qo'shadi. Ma'lum bir haqiqatlarni ortidan yomon niyat bilan yugurgan jonli janozangizni yelkangizga yuk qilib, o'z haqqqingizdan uring qolgan bo'lasiz. Xilma-xillikning yoki xilma-xil bo'ladi deb o'yagan narsalarингизни та'qib qilishni tashlaganingizda insonning jonli janozadan nima farqi qoladi?

Yap-yangi bir tezisni yaratish hech qachon bosh-qalarning to'g'ri qabul qilishlari bilan yuzaga chiqmaydi. Boshqalarning haqiqatlari balki sizga haqiqatni olib kelmas. O'z yo'lingizni, o'z haqiqatingizni topishga majbursiz.

O'z hayotining yo'lini qidirish bilan band bo'lgan inson aslo yo'qolmaydi.

Hayotda bir so'roq ishoratingiz bo'lsin, sizni yolg'iz qoldirmaydigan so'roq ishoratlari. Qilayotgan har bir ishda o'zgarishni yaratuvchi bir so'roq ishorati sizni atrofdagi barcha insonlardan tamoman boshqa in-songa aylantiradi. Chunki buni uddalagan insonlar har qanday muhitda doim so'roq ishoratlari bo'lgan insonlardir.

Hayotning bo'shlig'ini topishni niyat qilgan insonlar bir kuni mutlaqo buni uddalaydilar. O'sha muvaf-

faqiyatning siri bu o'zingiz ishongan tesizlarni ya-shash bilan birga sintezlaydigan bir so'roq ishoratidir. Bu ishq hayotingiz bo'lishi mumkin, ish yoki oila ha-yotingiz bo'lishi mumkin, bu orzularingizga qarshi bir so'roq ishorati bo'lishidan tashqari yo'lida yurayotib biror-bir narsaga qarshi siz paydo qilgan so'roq isho-rati ham bo'lishi mumkin.


Bir boladek, qaytadan o'rganishni boshlaydigan-dek hayotda so'roq ishoratlarini to'plang. Bir chekka-ga o'tib kundalik oqimni kuzating. Aqliy shakllarning bir fursat ekanligini qabul qilgan holda kuzating, mut-laqo hamma narsaning bir so'roq ishorati bilan o'rta-ga chiqqanini ko'rasiz. Agar inson bu so'roq ishoratini o'ziga qarshi bergan bo'lsa, u qaysi hatosini ko'ra olmasligi mumkin?

Masalan, insoniyatning har qanday bir mahsuloti ilk marotaba ixtro qilingan holi bilan hozirgi holi bir xilmi? Bunga turli-tuman o'zgarishlarni qo'shgan in-sonlar, oddiy insonlarmidi? Barcha harakatlarimiz od-diy inson bo'lib qolmaslik uchundir. Muvaffaqiyatning sirlariga yetishish doimo so'roq ishoratlaridan bosh-laydi. Agar har qanday narsaga yap-yangi bir boshla-nish qilmoqchi bo'lsangiz, aqlingizda o'nlab so'roq ishoratlari bo'lsin.

*Unutmang, hayot doim yangiliklarni sevadi.
Mana shuning uchun ham xafagarchiliklarni
o'ylamang, yo'lingizda davom eting va o'zgacha
bo'ling.*



*Hayot davomida doimo yaxshilik ortidan
yugurganlarga va bunga sababchi bo'lganlarga,
insoniylikni sevgi davolashiga ishonganlarga va hayot
so'qmoqlarida qayerdan ketishini bilmagan vaqtarda,
qo'llarini ochib duo qilgan qullarga Alloh har doim bir
eshikni ochadi. Aynan o'sha vaqt ko'ngilga to'lgan
o'sha sevinch uni endi hech qachon tark etmaydi. Alloh
yaxshisilingiza doimo kafildir.*



**Yashamoq, hamma narsaga qaramay
yashash tamoman bir inqilob bo'lsa-da,
ko'pincha taqdirimizga bo'ysunamiz.**

Aldanishlardan, qayg'ulardan va yig'i to'la kechalardan o'zimizga bir tartib o'ylab topyapmiz. Unutyapmiz sevishni, sevilishni va ortida turgan go'zalliklarning umrimizga tarqaladigan eng totli ranglarning nozikligini.

Chidash aqlimizning emas, ruhimizning bir chekkasidan ham o'tmayapti. Holbuki, kelajakda yashaydigan go'zal kunlarga hikoyalar to'plaganimizning farqiga ham bormaymiz. Yomon kunlar, albatta, butun boshli hayotning tuzidir, bunga ishonish kerak. Shoirning aytganidek „Azoblanish ruhning o'zini ko'rsatishidir“. **Ammo uddalasangiz hayotda boshdan o'tkazgan azoblariningizni qabul qilasiz.**

Yo'qsa uyqusiz kechalaringizni, qayg'ularingizni bekorga yashagan bo'lasiz

Juda ko'p duo bizni qutqaradi, juda ko'p duo. Duo-lar bizni ko'nglimizning og'riqlaridan qutqaradi. Turli xil taqqoslashlarni bir tarafga qo'yib, „Meni borim shu!“ degandan keyin haqiqiy yashashni boshlaymiz. Ha „Haqiqiy yashash“, dedim. Chunki haqiqiy yashash hayotning kurtagidir. Qurigan bir chechakning urug'-

lari tuproqqa tushishidek. Qachon yiqilsak, shunda uy-qudan uyg'onamiz va o'zimizga kelamiz.

Kullarimizdan tirilyapmiz, kullarimizdan.

Yolg'izligimizdan, yanglish tushunmovchiliklar-dan... To'g'rimi, chunki bu dunyoda hatto kaktuslar ham gullar ekan, tikanlari ham sevilishi kerak. Ana o'shanda go'zalliklar ortidan keladi. Siz avval o'zingizni seving, hayotni boridek sevingki, hayot sizga gullar ochsin.

Nima deb o'ylaysiz, hali ham yengilishga urin-ganning kuchi bormi? Hayot uchun kurashishga saba-bi bo'lmaganning bu urishdan qochishga, yengilishga kuchi bormikin? Yengilish ham kuch talab qiladi, bu yengilishni yelkasida tashish ham, hatto eng muhimi bu yengilish bilan bir umr yashash ham kuch istaydi. Oyoqqa turganning hech og'rig'i bormi?

Nega Rabbing bergen bu tanani muammolar bilan bo'g'ishga urinyapsiz? Aslida inson o'z-o'zining yara-sidir. Qanday yashashni istasangiz, shunday insonsiz, oyoqda qola olganingiz darajasida kuchlisiz. Sevgan-ingizdek erkin, sevganizingizdek yaxshi! Kechiktiril-gan bir kutishning og'rig'i bilan boshini yostiqqa ko'- mish kimni baxtli qila olgan ekan? Koshkilar bilan ichimizdagi bolani ulg'aytiryapmiz. Bu bolani koshki-lar bilan ulg'aytirgan o'z bolasidan nimani ham ku-tishi mumkin? Kelajakka terisi qotmagan, og'rig'i so'n-magan, qonashi tugamagan yaralarni qoldiryapmiz. Inson tili bilan emas, ko'ngli bilan doimiydir. Til g'u-rurli bir yurakning yonida katta bir yanglishdir. Kalimalar to'xtamay oyoqdan chaladi. Inson bu, ba'zan ham qoqiladi, ham hayron qoladi. Natijaga erishish-da sevgining fazilatlariga.

Hayotga qarshi hurmat bilan turish cho'ntagida besh qurushi bo'limgan insonning ham eng buyuk sarmoyasidir. Chunki eng oxirida umidlar o'ladi, inson doim kutishlarning ichidadir. Og'zidan chiqqanga emas, ko'nglingizdan o'tganlarga qaraydilar. Ba'zan kimdir xato qilib qo'ysa atrofdagilar „Mayli xato qilgandir, shunday bo'lsa ham yaxshi bir inson-ku“, deyдilar. Hayotning siri ham, sarmoyasi ham yurakdir. Haqiqiy hayotning sarmoyasi sevishdadir.

Umrimizning g'ururli urishlaridan chiqqan kechalarini va umidli tonglarini, haqiqiy yashashga atalgan ertalarga tashish umidi bilan sevishimiz lozim. Bir mushukning boshini silagandek, o'z qalbimizni silashimiz kerak. Bir gulni hidlagandek koinotning go'zalliklarini hidlashimiz kerak.

Inson, o'ziga marhamat qilishni tashлassa, butun yomonliklar uni topadi. Boshqa insonlarning bizga yomon munosabatda bo'lishning sababi, avvalo bizning o'zimizga bo'lgan munosabatimizdir. Unutmang, dard do'stingiz bo'lsa aslo xafa bo'lmanг, boshingizni ko'taring, ko'ksingizni kerib, katta yurak bilan: „Sevgi davolaydi. Vallohi ishon yuragim: sevgiga, ishonsak, u hamma narsani davolaydi”.

Ba'zi insonlar har bir qilingan fidokorlikka arzimas ekanligiga guvoh bo'ldim

Inson xafa bo'lsa ham ularni ayblay olmaysan, odatta, o'zimdan jahlim chiqadi, ha qarshilik kutmasdan qildim, biror narsa kutmadim ammo oz bo'lsa-da, qalbimga sevgi tortiq qilinishini istadim. Qiyin emasdi. Hayot daftаридан muvaffaqiyatsizлarni elakdan o'tkazdim.

Men ko'zlarim ochilganda tushundimki, inson qadr-lamagan insondan kelgan qadrni qadrli deb bilmas ekan.

Aslida ba'zi narsalarни sezardim-u, shunchaki ko'r-maganlikka olayotgandim. Men ko'rmaganlikka olganlarim ko'zlarimdan shaffof qon tomchilaridek oqishni boshladi, tungi uchda, tonggi beshda. Balki, shuning uchun ketishni tanlagandirman. Qolish ahmoqliк bo'lardi. Bu o'smasligini bila turib toshga urug' se-pishdek yolg'onchi bir umiddan iborat edi.

Men hech kimdan ranjimadim. Eng ko'p o'zimdan xafaman. O'zimdan kechganimga. Bu harakatlarim o'zimdan bir parchani boshqa birovlardan topa olma-yotganidandir. Bu qarshilik aslo kutish emasdi. Inson faqatgina uni tushunishlarini xohlaydi.

Insonlar avval sizning porlashingizga ishqiboz bo'-

lib, sevishadi. Yoningizda bo'lishni istashadi. Me'yorda sevmaguningizgacha butun nuringizni ularga fido qilasiz. Umidlaringiz bir yulduzdek osmonda osilib turadi, biroz rangsiz, biroz so'ngan. Lekin keyin ko'r-dimki, fidokorlik sal turib sizga gullar bilan keladi, tezkor qadamlar bilan sizni qarshilaydi. Qadr bilmaganlar esa tuyg'ularingiz ustini bir gazeta qog'ozi bilan o'rashar ekan siz baxtga ko'z qisasiz.

Go'zalliklarni ekib, qayg'u terib olgan bo'lsangiz, xafa bo'lmanq. O'sha gullar eng ehtiyojingiz bor paytda qalbingizda unib chiqadi. Vaqt sizni nimaga tayyorlayotganini bilmaysiz. Bugun bo'limgan, ertaga eng go'zal holatda sizniki bo'ladi.

Ko'zdan yiroq ko'ngildan yiroq

Shaharlar orasida uzayib ketgan shoxbekatlar orasida hayotimizning o'nqir-cho'nqirdan iborat ekanligini unutib qo'yyapmiz. Yelkamizda chirog'i singan ko'chalarining ohini tashiyapmiz. Doim oraga masofa qo'yilganda ko'nglimizdan yiroqlashamizmi? Yuziga qarashga ham iymanganlarimizning jimpitligi quloqlarimizni parchalayapti. Ketish faqatgina eshikni yopish bilan tamom bo'larmidi? Inson ko'pincha ko'zlar ko'zlarida bo'lsa ham bir-birlaridan uzoq qolishadi.

Kimdir jasoratini to'plab sevishini ayta olmaydi, kimdir esa sevganining ko'zlariga qarab turib qanot qoqmoqchi bo'lgan tog'larning xayolini suradi. Hamma narsani qo'ya turing, inson ko'pincha hatto o'zining g'urbatida qoladi, ko'krak qafasi bilan qalbi orasidagi masofada ham o'zidan yiroq qoladi. Bu ko'ngil tog'ini yiqitgan kimdir sizni yarim yo'lda qoldirganimikan, nima deb o'ylaysiz? Bir kuni kutilmaganda vaqt qoshlarini qoqib eshik oldiga keladi va butun rishtalarni mushti bilan parchalab tashlaydi. Shaharlarning chekkasiga uchasiz, ba'zan kelin ko'ylak kiyib boshqa bir uyga ko'chasiz, ba'zan oyoqda turish uchun, oilangiz uchun, ba'zan esa orzularingiz ushalishi uchun kurashasiz. Ko'zdan yiroq qolmaslik uchun qo'lingizda nima ham bor... Hamma narsa qo'lingizdan ketadi,

o'sha on o'tishi kerak bo'lgan narsalar birma-bir qo'-lingizdan sirg'anib ketadi.

Kulib, yelib-yugurgan ko'chalaryngiz avval o'sha eshikning tagiga tushib sinadi: bolaligingiz, yashashga bo'lgan sevinchingiz va o'tmishga doir kechinma-laringiz barchasi. Bir vidoning ortidan ortiga qaramay-digan inson bormi? Kunlab hayotda qolish sevinchi bilan kurashishda davom etaverasiz. Aslida, oxiriga ke-lib insonning ichida katta bir yara bo'lgan xursand-chiligi g'oyib boladi. Shunday bir yaraku, ham shifo, ham depressiyaga qarshi.

Umrangiz davomida siz biriktirgan insonlarni birma-bir yo'qotish ko'zdagi nurdan boshlanadi aslida. Ko'z ko'zga kelganda boqishlaringizga endi nur ber-mayotgan bo'lsa, ba'zi ranglarni ham ko'rishdan voz kechasiz. Masalan qorani aslo ko'rmaysiz, zotan, inson qop-qorong'i bir xonada qora rangni qanday qilib ko'-rishi mumkin?

Manfaat uchun yoningizda bo'lganlarning niqobi siz uzun yo'lga chiqqaniningizda birma-bir tushadi, vaqt bilan yiqilishning bir yuz yigirma to'rt ming xilini ko'rasiz, chunki kilometrlar ko'ngilga rishta bog'-lamaganlarning bahonasidir. Har birimizning kollek-siyamiz bir turish, bir boqish, bir kulish, kutilmagan-da uchrashib qolish yoki sevganing sochlari iforini ko'krak qafasida biriktirmagan insonlardan tashkil topadi. Shunday bo'lsa-da, hech narsaga qaramay, bir rishtani saqlab qola olmaslikning o'zi katta bir xiyonatdir. Inson naqadar uzoqqa keta olishi mumkin? Or-zularini so'zlab bergen, sevinchini his qilgan, umid-sizliklarni to'kib-sochgan insondan naqadar uzoqqa keta oladi? Qanday qilib?

Hech narsaga qaramay, ko'pincha yana bir ona us-lubiga sig'inamiz. Charchab kelganimizda uyning eshi-gida biz tabassumiga qurbon bo'lgan boqishlardan yiroq qolishni xohlaydimi inson? Sho'rvaning shirin hidi dimog'imizga urilganda qornimizni to'yg'azishi-ga hamda qalbimizni to'ydirish dardida ko'proq kim-ning yoniga oshiqamiz? Ona qo'li tekkan qalb jiring-lamaydimi? Hech ona qo'li tekkan joy og'riydimi? In-son naqadar uzoqlashsa ham ona qalbi farzandidan hech yiroq qola oladimi? Yashashni ona qalbidek qu-chish kerak. Bu hayotni ona qo'lini tutgandek tutish kerak. Bizni undan ko'proq kim tushuna oladi, undan ko'proq kim bir boqishdagi yomg'irlarning tomchilarini hisobini qila oladi. Shaharlar, qo'shiqlar va she'r-larga ko'chgan ko'z yoshlaringizni eng ko'p ular ber-kita oladilar. Hammadan bir yaralanasiz, hammadan uzoq qolasiz, lekin shu dunyoda birgina ona qalbidan yiroq qololmaysiz.

O'zingizni qanchalar uzoqlarga olib keta olasiz: qayerda baxtli bo'lganingizni, kim bilan soatlab hech zerikmay gaplasha olganingizni, to'yib-to'yib qah-qah ota olganingizni? Inson shunday, bir deraza oynasi-dan ham mo'rtdir. Yashamoq deganlari ichida achchiq bir nafas olishdir. Inson qayerda baxtli bo'lsa, yuzi doim o'sha yerga qaraydi. So'nggi vidolar yoki alvido-lar naqadar yomon bo'lsa ham yomonliklarni unu-tishga mas'uliyatlidir, insonlarni emas.

Albatta, unutish buyuk bir ne'matdir, unutish bi-lan birinchilardan do'st bo'lamiz. Avval bolalik on-larimizdan boshlaymiz unutishni, so'ngra ilk oshiq bo'l-gan onimiz, vaqt to'xtaydi yashashni unutamiz va vaqt

bilan unutiladigan narsalarini ham. Ho'p ko'zdan yiroq bo'lganning og'riqlarini inson nima uchun unutadi? Unutilishi kerak bo'lgan yomon onlar va xotiralarimi yoki yoningizda bir necha go'zal daqiqa o'tkaza olgan insonlarmi?

Shukru Erbash aytganidek: „Insonning dardini inson oladi”.

Og'riqlarimiz bilan bus-butun bo'lishning yukini tashish hayotning o'zidir. Chunki agar huzur insonni oyoqda ushlab turgan, yashashga sevinch qo'shgan, uyg'onishlarimizni qo'shiqlarga aylantirgan bo'lsa, bu ichki urushlarimiz nima uchun? Agar unutilsa, eng ko'p bu ichki urishlar unutilishga loyiqdirlar. Qo'limizning orqasi bilan butun yomon xotiralarni siltasak, sevinchimizni qo'limizdan oladigan nima ham qoladi shu hayotda?

Yolg'iz o'zimiz bir yo'lda ketayotganimizda o'zimiz payqamay yonidan o'tib ketgan go'zalliklarning javobini berolmaymiz. Biz og'riqlarini bo'lishgan insonlarning qul haqqi hisobini to'lolmaymiz. Siz uchun harakat qilayotgan insonlarni ranjitganingiz sari yolg'izlanib boraverasiz.

To'satdan tez tormoz bergan bir mashinaning o'rindiqlarini mahkam quchgandek quchmasak, unda nega insonlarni hayotimizga kirkizamiz? Barchasi sizdan boshlanadi. Inson, avvalo, o'zining shifokoridir, ba'zan qalb, ba'zan ruh shifokori. Shu dunyoda o'zingizni torta olguningizgacha kuchlisiz, o'zingizni tanimaguningizgacha begonasiz. Sizni sizga so'zlab beruvchi insonlarni to'plashingiz kerak toki orqangizdagipichoqdan qolgan yaralarni ham, ko'zlariningizdaginurning rangini ham ko'rsata olsinlar.

Bu hayotda ko'zdan yiroq qolganda, ko'ngildan yi-roq qolmaydigan insonlarni to'plang. Bir tomchi suv tuproqda qanday yo'q bo'lishini bilasiz, shunday ekan minglab tomchi bilan katta bir yo'lga aylantiring ha-yotingiz yo'lini.

Sizdan keyin ortingizda qolgan hamma narsaning go'zallashishi uchun hayotda biror narsa qoldiring. Masalan bir she'ringiz bo'lsin va u yarim kechasi bir kitobning o'rtasida qalbiga shifo qidirganning biriga uchrasin. Hech qo'shiq aytish jasoratingiz bo'lmasa, bir musiqa bastalang, balski yuz yillardan so'ng bir nafasda jonlanar, kim bilsin kimlarga malham bo'ladi. Marhamatingizni qoldiring ortingizdan, sizning xayringiz uchun kimsasiz yo'llarda muzdek suv bergen chashmadek shahardan shaharga oqishda davom etsin. Eng ko'p farzandlaringizga o'sha marhamatni meros qilib qoldiringki, insoniyat hayotga doim umidvor bo'lsin.

Ortingizda bir tabassum qoldiring, yuqumlì bo'sib shox bekatlardi vidolashuvlarni berkitsin. Bu hayotda insonning yuzi kulganida hamma narsa unutilsa, ichidagi qahramonlari rango-rang bo'lgan bir ertak qoldiringki, yarim kechada kichik bolalarni uxlatsin. Vidolarni qoldiring ortingizdan, bir ayrılıqning ortidan qanday vidolashish kerakligini insoniyat o'rgansin. Orzularingiz tomon yugurgan xotiralariningizni qoldiring ortingizdan, toqati toq bo'lgan insonlarga kuch bersin.

Inson xohlasa nimalarni meros qilib qoldirmaydi, bularning barchasiga qaramay, ortingizda qolganlarni jonlantiradigan havaslar qoldiringki, sizdan keyingilar ham hayotidan nasibalar olsin. Hayot faqat moddiy tomonidan ta'minlanmaydi.

Ortingizda biror narsalarni qoldirishni xohlashingiz kifoya. Meros qoldirmoqchi bo'lsangiz yaxshi insoniylik qoldiring ortingizdan, toki yashashga loyiq bo'lgan bir insonning shuncha narsaga qaramay, yashashda davom etishini ko'rib qo'yishsin.

Inson o'z qadarini yozadi

Dardlaringiz daryo, dunyoning g'am cho'li ekanligiga qaramay, sharoitlar og'ir bo'lsa-da, inson yashashni bir shaklda vaqt o'tishi bilan o'rganadi. Holbuki, sevgi bir qultum suv edi, dunyo cho'lida bizni bizga bog'lagan. Davolagandi, biz ranjigan, charchagan barcha urishlarga qaramay. Eng qimmatbaho dorimiz edi. Shaharning gavjum shovqin-suroni orasidan bir chekkaga o'tib, bir finjon qahvani to'ldirib olib inson o'zidan: „Bu hangomaning qayeridaman?“ deb so'raydi ko'pincha. Kutishlarning jarligi orasida silkinar ekanmiz ba'zida ichimizning bog' ekanligidan bexabar yashayotganimizni payqaymiz. Toki yashar ekansiz hech bir xursandchilik tugashga moyil emas, shuning uchun insonlarni sevish davolaydi.

Hayot yangi sahilalarni ocha olganlar uchun adolatlidir. Sharoit qanday bo'lsa ham qartalar qaytadan tarqatilishini boshlaganda, hayot sizga yana bir jeton imkonini beradi.

Hech bir intiho, tom ma'noda bir tugash emas, albatta agar ichida arg'imchoqlarning va attraksionlarning farqiga borayotgan bo'lsangiz. Qo'ying charxpalaklarni, aylanishi kerak bo'lgandaki aylanib, sizga haqiqiy yuzini ko'rsatsin hayot. Nima ham aylanmaydi deysiz bir-birining ortidan, xiyonatlar, jirkanchliklar,

qizg'onishlar va aylanishi kerak bo'lgan nima bo'lsa birma-bir aylanadi. Asl fazilat mana shularga qarshilik qilmasdan tabassum qilib o'tib ketishdir. Inson fazilatli bo'lishni afzal ko'rganida va ikkilanishga moyil bo'lganida, eng chuqurlikka qarab tushishni boshlaydi: „Ajabo tushmasammikan?“ Insonning boshqa tu-shadigan joyi qolmaganida vaqtı-vaqtı bilan qolishga majbur bo'ladi. Majburlikdan qolganidan emas, hayot o'zi istab o'rnidan turgan insondan qo'rqed.

Bir bokschining mag'lubiyatdan keyin o'rnidan turishi bilan, musht yeganida yanada kuchli bir hirs bilan oyoqqa turganini tenglashtira olamizmi? Ko'pincha xulosani insonning o'zi yasaydi. Qadar g'ayratga oshiqdir deydilar, Alloh ishlaganni sevadi. Mehnat qilingan qaysi sevgiga javoban aybdorlik tuyg'usini his qilishi mumkin inson? Mehnat qilingan va juda ko'p harakat qilingan qaysi orzuning xulosasini ko'rmaydi inson...

Muvaffaqiyatsizliklar keyingi emas, qaysi yo'ldan ketmasligingiz kerakligini ko'rsatgan bir tajribadir. Muvaffaqiyatsizliklarning orqasiga berkingan inson alla-qachon yutqazishni qabul qilib bo'lgandir. Albatta, ko'pincha ochko'zlikning ham odobli bo'lganiga intilamiz, rostgo'ylik bizga hurmatga sazavor bo'lib yashashning, bundan tashqari xotirjamlikda yashashning eshiklarini ochgan yagona tuyg'udir.

Rostgo'ylik charchab holdan toygandir, u ichi qoraygan qalblarning tikanidir. Kimga botsa, ovoz chiqaradi.

Biz hayotning orqasidan oyoq chalmasdan, yondan salom berib o'tishni afzal ko'rganlardanmiz. Biz qasos emas, muvaffaqiyatdan keyingi tabassumlar-

ning qahramonlarimiz. Bizning ertagimizda na oppog'-oydek hushdan ketish haqida, na Robin Guddek o'g'-rilik haqida bahs etiladi. Bir xayolni suratga oldikmi, unga borar yo'llarga she'rlar to'shab, qo'shiqlar kuylaymiz. Chunki biz to'g'ridan to'g'ri hayotga tabassum qilganlardanmiz. Chunki sevganlardanmiz, sevishni sevganlardan...

Ba'zi insonlarning hech kutilmaganda bir onda jo'shib ketishi va hayot dengizidan bir kitdek otilishi, ortida biriktirgan mag'lubiyatlarning ustidan bosib chiqishi ehtimoldan holi emas. Albatta, hamma oyoqlari ostida to'plagan mag'lubiyatlardan xulosa chiqarib, ulardan bir qadamdek foydalanadilar. Yengilishga tajriba yoki mag'lubiyat sifatida qarashingizga ko'ra ketishingizning usuli o'zgaradi. Hayotning dunyoqarashi hammanikiga qaraganda boshqachadir va hayotning dardlarni ko'rish usuli ham boshqacha. Bir qarashda barcha his qilgan dardlarning hikoyasi butun boshdan o'tkazganlari bilan yashirindir.

Hayotga qayerdan qarasangiz qarang, yashashni qayeridan tutsangiz tuting, aslida butun yig'ganlaringiz doim qo'lingizda bo'lgan imkoniyatlariningizdir. Boshqalarnikidan farqlidir bir qalbning ichidagi tug'-yonlar.

Ali Lidardan so'rasangiz: „Yig'lamoq tushunmoqdir”, deydi.

Ismet O'zel: „Yo sen kel yoki meni ham u yerga keltir”, deydi.

Jahit Zarifo'g'li esa: „Men bu zamondan nafratlandim, etim va suyagim bilan nafratlandim”, deydi.

Mendan so'rasangiz: „Keyingi sahifada hanuz yozilmaganimdir”, deyman.

Ha, men har doim keyingi sahifada unutilishni kechiktirgan, doim keyingi sahifalarga yarashmagan, doim keyingi sahifadan yanada go'zal va umidli, keyingi sahifada yozilishga loyiq bo'lgan insonman. Yo-zilgan, amalda qo'llanilayotgan hamma narsa o'tmishda qolgandir. Qarang men buni yozdim va bu yozuv biroz avvalda qoldi, siz o'qidingiz va o'qigan bo'ldingiz. Men, zotan, o'tmishda qololmayman, o'tmishda qolsak, nega shu yergacha keldik?

Hayotning siri, mo'jizasi davolanish bo'lsa agar, marhamat sevish davolaydi. O'zingizga yarashgani-dek o'zingizni va boshqalarni seving.

Allohdan umidni uzish insonni toliqtiradi.

Maqsadsizlantiradi.

Qiyinchiliklardan keyin Alloh osonlik beradi. Har yangi kunda ko'ngil tuprog'ingizda yangi umidlarni parvarishlang. Albatta, qayg'u doim bo'sadi, ammo bu qayg'u sizning zuvalangizni pishirishiga ruxsat bering. Agar o'sha azobdan dars olmayotgan bo'sangiz bekorga azob chekkan bo'lasiz va yana o'sha mavhum tuyg'ularning o'rtasida o'zingizni topasiz.

Ruxsat bering, hayot sizni yaralagan joyidan gullatsin.

*Vaqt o'tadi, quyosh o'z joyini qor parchalariga
bo'shatib beradi.*

*Chirimaydi deb o'ylagan barcha gullaringiz
ruhingiz bilan birga chiriysi.*

*Shuni unutmang, tugamaydi deb o'ylagan
bu kunlaringiz ham ortda qoladi.*

*Insonmiz, fitratimizning eng go'zal tarafi unutish.
Bizga hadya qilingan eng go'zal narsa...*

*Asida, yomon kunlar yaxshi kunlarning kalitidir.
Chorasizlik*

*sizni boshqa nuqtalarga tashiydi, buni ko'ra olasiz.
Hayot ziddiyatliliklardan*

*iborat. Kecha kunduzni berkitadi. Kunduz orom oladi.
Dardlar baxtni bezaydi. Siz kutgan narsalar naqadar
kechiksa sizga shu qadar chiroyli qilib tortiq qilinadi.*

Siz yetarsi kutishni biling, shoshilmang.

*Agar shoshilsangiz hamma narsani rasvo qilasiz.
Tayyorlanmay kelgan xursandchilik sizdan uyaladi.*

Qochib ketadi, unutmang!

Sevgisizlikning bu qurib ketgan iqlimida sovuq xonalar ichida yolg'iz kutishdan voz keching

Tashqariga chiqing, ko'chalarining katta bir yolg'iz insonlarning mehmonxonasi ekanligini ko'rasiz. Har bir yurak bir xonadir aslida, o'z yolg'izligining qulayligini o'zi yaratgan. Yuragingizni nima bilan oziqlantirmoqchi bo'lsangiz, shunga qarab yuguring. Gavjumliklar ichida yolg'izlik ufurib turadi. Qalbingiz derazalarini samoga qarata oching va qalbingiz xonalariga kirgan shamolning esishini his eting.

Yolg'izlik noto'g'ri bilingan bir hisning aralashmasidir. Aksincha, yolg'izlik insonni o'ziga keltirgan tuyg'u gavjumligining aralashmasidir. Yiqilib qayta oyoqqa turasiz, boshqalarga qo'l-qanot bo'lasiz va hatto shu sababli qanotlarining sinadi, aynan mana shunda hammaga o'z me'yorida va miqdorida yugurishingiz kerakligini anglab yetasiz.

Yiqilganlardan biriga, albatta, qo'l uzating, faqat bunda oyoq tirab olmang. Vaqt o'tishi bilan buni juda yaxshi anglaysiz. Inson ko'p narsani boshiga tushmagunicha tushunolmaydi. Tajribadan o'tkazmagan biriga chekayotgan azobingizning qay daraja og'ir ekanligini qanday qilib tushuntirasiz, ham u qay daraja tu-shuna olishi mumkin-ki, bu nuqtada tajriba alma-

shinuvini doimo hayot qutqaradi. Bunda ham oyoq tirab olmang. Dunyoga tasallilar tarqatishga oyoq tirab olmang. Chunki insonlar kibri bilan doimiydir, terisidek ustida olib yuradi, lekin ko'pincha ko'yakdek kiyib olishadi, kibrini ko'rmasiz.

Dunyoning har bir nuqtasida, hayotning har bir davrida bir nimalardan bezigan insonlarga berilgan siyqasi chiqqan bir o'gitzdir. Chunki siz, sizga yaxshilik qilinyapti deb o'ylaysiz. Dardingizni bo'lishyapti, siz yaxshi bo'ling deya urinyapti deb o'ylaysiz, ammo o'sha tajriba degan nom bilan sizga oljanob so'zlar gapirar ekanlar aslida naqadar tajribasiz ekanliklarini va naqadar kibrli ekanliklarini hayotga va sizga to'kib sochayotgan bo'ladilar. Holbuki, tajriba ijobiy bir g'alabadir. Agar rostdan ham birortasiga qo'l uzattishni istayotgan, kimdirlar bilan maslahatlashmoqchi bo'lsangiz, o'z ichingizga nazar tashlang va ichingizdagagi qiz bolaga qo'lingizni uzating. Qaytmoqchi bo'lsangiz o'z ichingizga qayting, eng sof holingizga, ichingizda sevgining shifosini topasiz. Shunda hamma narsani har kimga tushuntirib bo'lmasligini anglab yetasiz.

Har bir mag'lubiyat o'zingizni topishingiz uchun bir o'gitudir

Bir marotaba bo'lsa ham yo'qotishning mazasini totish kerak. Faqat yo'qotganidan keyin qozonishni boshlaydi inson. Sizdan o'zi istaganini qo'porib olma-gunicha, hayotning mujodalasi tugamaydi va faqat sizdan istaganlarini qo'porgan insonlar bilan yo'lingiz davom etadi. Qolganlari o'ziga ishonchi bo'limgan ah-moqlar edi. Ishonch siz istaganini bergan kishilar bilan mavjud bo'ladi.

Ular o'zgarganida unutishdan boshqa chora qoldirmaganlarini tushunib yetasiz. Ularsiz hayotning qanday ravon ekanligini kashf qilish tezligi bilan o'zingizni xotirjam his qilasiz.

Tagi teshilgan bir stakandan oqayotgan qaynoq choydek, turib-turib butun birikkanlaringizni to'kib yuborayotgandingiz. Sabr-toqat chegarasidan allaqa-chon o'tgan fikringiz va qalbingiz ishonchsizlik signalini bergan butun keraksizliklarni tashqarida qoldirib, ularning yerlariga loyiq bo'lgan xursandchiliklar siqishtirayotgandir. Bugungacha kelishi chiroqli bo'lган, siz tiqishtirgan hamma narsa u yerdan bu yerga yirtiq bir cho'ntakdan tushib qolar ekan, e'tibor bermay yurishda davom etayotgandingiz. Ahamiyat ber-ganingiz sayin ahamiyat bermaganlaringizni idrok

qilganingizdan beri yurak daftaringizga osonlikcha chiziq chizishni o'rgangandingiz. Bu nuqtada to'xtab orqaga qaramaslik kerakligini bila turib, olg'a qadam tashlaganingiz sari muvaffaqiyatga yana bir qadam yaqinlashayotgandingiz.

Yaralangan sari gullayotgan, gul ochgan sari kuch to'playotgandingiz. Chunki har bir mag'lubiyat, o'zingizni topishingiz uchun bir o'git ekanligini bilardingiz va siz shuncha mavhumlikning ichidan yap-yangi, umidga to'la g'alabalarni egallab, yurak etagingizga solib yo'lida shunday davom etishingiz kerak edi. Hatto davom etishga majbur edingiz. Aks holda, mavhumliklarga o'ralashib, ichidan chiqolmaydigan katta bir tartibsizlik va vaqt yo'qotishi bo'lar edi. Ishonch qoidasini buzgan ishonchsizlar ham hayotingizdan chiqqandi, faqat hech istalgan muvozanatni ushlay olmayotgandingiz. Ho'p, yo'lning maqsad qismiga borish uchun nima qilish kerak edi va nima kam edi?

Inson sevgini ko'rsatish uchun sevgisizlikni kutadi.

Hech kimdan

*shu sababli intiqom olmadim. Qasos olishga haqqim
bo'lsa-da, men orqamni o'girib ketishni tanladim.*

Boshqa nimayam

*qila olar edim? Men sevgimni qaytib
olganimdan keyin tortiq*

*qilingan bir sevgining hech qanday ahamiyati yo'q.
Men sendan ketdim.*

*Yuragingizga tushgan pushaymonlik
hech nimani bildirmaydi.*

Hech kimni osonlikcha chiqarmadim hayotimdan.

*O'z ichimda ularni haqlı deb bılıb,
qaytadan nohaqlik qilishlariga
yo's qo'ydim. Bu safar tugadi desam
ham o'chira olmadim.*

Ko'pincha intiholarni tugata olmadim.

*Ammo hamma sevgini
tushunmasligini angladim.*

*Siz ko'rsatgan harakat sizga shu qadar yarashib
turadiki, yaxshilingizni majburiyatizingiz deb biladilar.*

Umrим – bir qalb og'rig'i

Meni ranjitish uchun kurashyapti dunyo, meni xafa qilish uchundir butun bu kechalar. Mening chap tomonimdagи gavjumligim esa sensan hayot. Dalalari-mizda shamol bo'libdi, ekinlarimiz uchib ketibdi. Yomg'irlar yog'ibdi ko'chalarimizga, uylarimizning tomlari qulab tushibdi. Orqangdaman hayot, mendan qancha uzoqqa keta olasan? Puchga chiqadigan ko'p xayollar, ustidan bosib o'tadigan ko'p umid birlashtirdim, zirillashing shundanmidi? Ortimga qaramasdan kelajakka qadam qo'yishimmi, seni shuncha muammo-larga solgan? Eh hayot, yashash o'zingga siylov. Boshidan o'tkazmagan, albatta, aslo bilolmaydi, havas bilan uyg'onib shosha-pisha oyna qarshisida ust-boshingizni tuzatishga harakat qilib, ammo so'nggi daqiqada voz kechilgan narsaning achchiq og'rig'ini. Hatto, men ham ba'zida o'zimni tushunmayman, nega bu shoshilinch yugur-yugurlar. Kimga shunchalik ishonamiz? Qarang kecha tugadi, erta endi ikkimiz uchun ham muallaq, ortiq hammamiz o'ladigan yoshdamiz. Men bu dunyoning emas, dunyo mening atrofimda aylansin endi, og'riqlar har doimgidan ham ko'proq qiziqtiradi, qon ter ichida emas ko'z achishlar. Hozir sevgiga muhtoj bir bezakdir, umr deb atalgan hangoma.

Hayotga qarshi kurashishdan charchamadim. Chunksi bilaman endi hech bir narsani tuyg'u bilan emas,

aqlim bilan ham tasdiqlab ochiq holda his qilyapman. Og'riqlarning uzoqlashishi tizzalarimda boshlanyapti, ko'zlarimdan tomchilayapti charchoqlar va qo'llarimda jonlangan tomirlarda bilinyapti. Bularning hech biri hissiy emas, shundoqqina ko'ryapman.

Menden „Fizika qonunlarini ostan-ustun qilgan va dorixonalarining chorasi topilmagan bu og'riqlar kimning merosi?“ deb so'raydigan bo'lsangiz, „Qalbi toshlarning, sevishni bir shaklda uddalay olmaydiganlar ning“, deyman.

„Mening ham kurashim tugayapti, buni payqayapman. Sen so'zla hayot, seni qanday yashay? Qayerda qoldirding biriktirgan tonglaringni? Qayering yanada issiq, qayering yanada salqin? Ortiq yuragimni sovitma, seni eng sevimli tuyg'ular bilan quchgim kelyapti hayot. Ba'zan qarama-qarshi o'tirib, butun majozlarni ham yonimizga olib, mashinaning orqa oynalaridan shaharning dengizlarini tomosha qilishni istayman. Bilaman, bunday bo'lishi menga bir dars bo'lishi kerak edi va bu darsdan allaqachon qolib ketganidan xabarlingiz ham yo'q edi. Shamol esdi, chang zarralarim meni juda uzoqlargasovurdi, shu on men hech tanishmagan, undan avval men hech tanishmagan bir joydaman, o'zimda. Qalbimning og'riqli bir ovozi bor; qu-loq eshitmas, ko'ngil eshitmas, ko'z ko'rmas, ammo yashash bilan bandman. Men kimga gapiryapman? Keling meni qutqaring! Bo'rilar yostig'imga kirdi. Qalbimizning eng uzoq tanholigida jumjilikka burkandim. Hech ertalarni ko'ra olmayapman. Sevgi degan mo'jiza esa qayerda?“, dedi go'zal bir yosh qiz.

Yig'lashga loyiq bo'limgan go'zal ayollar ora-sirada shunday narsalarni aytishadi. Baxtsizligidan emas,

dunyoni tushuna olmaganidan. Bo'lishi kerak bo'lma-gan hamma narsani birma bir satrlar orasiga joylash-tiradilar va parcha-parcha qiladilar. Zotan, hayotda hamma narsa bunga loyiq emasmi? Shunchaki qadr-lash kerakligidan isyon qiladilar.

Sabr qilish faqatgina o'tirib kutish, qup-quruq duo-larga tutinish emas, bir nimalarni ham qurishga hara-kat qilish edi. Mening ham qalbimning shunday bir ovozi bor, go'zal bir yosh qiz qalbi. Hayotimning ustki qavatida qichqiriqlar yashaydi; qo'shiqlar, she'rlar ka-bilarni aytadi.

Qisqachasi bundan ham o'tadi, biz muhim deb bil-magan hamma narsadan ham o'tadi. Bizni bezovta qil-gan hamma narsadan tashqari, lekin muhim deb hisoblanmaydigan darajada tinch bo'lganlardan tashqa-rida. Endi dunyo ham onamning mehridan tashqarida. Qo'llaridan o'psam yashashni o'rganaman, sochlaridan o'psam kap-katta bir ayolman. Qo'lim bilan yuzini si-lasam umidga to'laman, qo'lini yuzimga tekkazsa, ke-chagi bolaga aylanaman. Uning yonida dunyoda katta bir umidman. Hozir uni o'pishdan kelyapman, yo'lida o'lishdan. Nafasingizdan duolar olishdan kelyapman, lablaringizdan she'rlar eshitishdan. Qo'limda so'nggi bir gul bor, hozir buning tikanlari kimga botadi?



*Qabul bo'smagan har duoning ortida Alloh siz uchun
yanada go'zal bir baxtni hozirlayapti.*

Bunga ishoning.

Kech kelgan baxt qoladigan bo'sadi.





*Va samoning kechasi yirtiladi.
Unutmang, bo'ronlar sizni qovurayotgan paytda
Rabbingiz, hatto gunohlar ingizni
ham farishtalarga tashitadi.
Rabbingizga sig'inинг, undan boshqa
borar joyingiz yo'q.*



Yusufning quduqdan chuqur iymoni

*Duoga ishongan qiyin vaziyatda qolmaydi.
Rabbisiga iymon keltirgan aslo boshqa do'st
qidirmaydi.
Sabrning oxiri, albatta, najotdir.
Alloh, sabr qilishga ham kafildir.*

Alloh, sabr qilganga kuch va g'ayrat ato qiladiki, iymon qudug'ining chuqurligi his qilinsin. Har najot, duoning qabul bo'lgan chechagidir. Hovuchlaringiz orasida yashashga doir bir gulni ushlab, undan nasiba olasiz. Hidlaysiz, o'pasiz, tabassum qilasiz. Aynan mana shu ham o'tmishdag'i sabringizning mukofotidir. Demak, Robbingiz sizni hushbo'y gullari bilan mukofotlayapti.

Albatta, har bir chuqur quduqning bir egasi bordir. Ko'nglingiz chuqur quduqlardan, sabringiz va ishon-chingiz esa chuqur quduqlarga ketgan yo'llarda Allohnинг rizosini olmoqlik uchun sabr qilmagan inson, qanday qilib yashashning sevinchini qidirmoqda? Rabbimdan boshqa chera bo'lмаган bu hasta dunyoning qaysi eshigi, gullarimizni yashata oladigan suvni bera oladi? Agar tunning zulmatida sanchilib qolgan bir ko'ngil qutqarilmoqchi bo'lsa, yana kim unga xotirjamlik beradi?

Chiqilmas deb bilingan quduqdan Rabbim faqatgina hazrati Yusufni qutqardimi? Bitmaydi deb o'ylab, uzayib ketgan qorong'i kechalaringizni tongga yetkazgan kim edi? Hazrati Yusufni quduqdan chiqarib, Misrga sulton qilgan Rabbingiz umididan, ko'ksimizdagi qovurg'alarimizni siqayotgan bu og'riqlardan qutqaradigan iymondan xohlamaysizmi?

Aslida bir umidning qirg'og'iga tutunishni ko'rsa, qaytadan tug'ilib bus-butun bo'ladi inson. O'rningizdan turing va shukur qiling, olgan emas, chiqara olgan butun nafaslaringiz uchun. Toraygan ko'ksimizning va oqlar tushgan sochlarmizning egasiga, quduqdagi Yusufning va tuzoqdagi Musoning egasiga, qushlarning va she'rlarning, kechalarining va shaharlarning egasi-ga shukur qil.

Har birimiz o'ziga oid quduqlardan qutqarilishni kutayotgan Yusufmiz. Ko'ngli muhabbatning berk ko'chalarida siqilgan yoshlarning yig'lashlari, oqshomlari uyga qo'li bo'sh qaytishga majbur bo'lgan otalarning g'ururlari va otasining g'ururlari va otasining suratini unutgan qiz bolalarning nomidan turib ham quduq-dan qutqarilishni tilamaysizmi?

Duolarimiz sengadir ey Rabbim, quduqlarimizning chuqurligi amring bilan mavjuddir. Samodan tushgan har bir tomchining, tuproqning joni borligini bilamiz. Jonimizga yomg'irlar yog'dir. Bu yiqilish ham amring bilan vojibdir, bizni yiqitma, oyoq ostida unutma bizni. Jonimiz qo'lingdadir, rahmat eshiklarining bizga och. Quduqlarimizdagi to'siqlarni olib tashla. Besh vaqt osmonda farishtalarning „Uyga qayt!“ degan hayqiriqlarini eshitamiz. Uyimiz sensan, sendan boshqa bora-digan joyimiz yo'q. Qutqar bizni bu chuqur quduqlar-dan.

Qovurg'alarining og'rig'idan kechalari uxlay olmagan, yig'lagan zahoti ko'zlaridan yanoqlariga qarab qon tomgan. Vijdon hisobchisining qashshoqligini boshdan kechirgan va yashashni ham faqatgina oyoqda qolish deb bilgan sukunat ichidagi bir shahar.

O'n bir yulduzning oldida sajda qilgan Hz. Yusuf ni qo'llarining orasiga olish bilan nohaqlik qilgan bir shahar. Albatta, bu shaharning ham bir aybi bor edi, ichidagi qudug'iga Yusufning tushishiga sababchi bo'lgan. Nohaqliklarni haqqa aylantirgan Rabbingizning rejalaridan bexabar qayergacha bora olasiz?

Singan qalbning hisobi kimga qoldi? Qalbingizda doimo vijdon savdosini qiling va buyuk iymonli bir qalb bilan o'ralashgan va ko'plab xavotirlarni tashigan insonning kafili, albatta, Allohdir. Mutlaqo kechirish eng ko'p unga yarashadi.

Bir kun bir darveshdan so'rabdilar: „Afandim qanday qilib bu qadar boysiz, boyligingizni hisob qilib bo'lmaydi“. U ham kulib: „Alloh berdi, men insonlarga yordam berdim va yaxshilik qilidim, u menga berdi, men nochor qolganlarga berdim, u mol-mulk bergen sari men xayriya qildim. Allah bilan musobaqalashib bo'larkanmi, oxiri u yutdi“, debdi. Yashashning siri ham aynan mana shunda. Quduqdagi Yusuf, hatto o'sha vaziyatda ham yomon o'yamasdan yaxshi niyat bilan oziqlangan bo'lsa, Yaratgan unga qalbining mehnatiga javob bermadimi? Shu sababdan hamma qalb mehnatining mukofotini oladi.

Allohningadolati hammaga barobardir. Hammaning qudug'i samimiyatiga ko'ra chuqurdir. Shu bilan birga Rabbingizga bo'lgan e'tiqodingizdek chuqurdir, bunisi aniq.

Shunday ekan boshingizga biror kor-hol tushsa, noliy ko'rmang. Quduqqa tushayotganda hamma nar-saga, avvalo, qalbingizdag'i samimiyatga javobgarsiz. Keyin ishonchingizni va kechiktirgan duolaringizni o'y-lang, chunki o'lishdan oldin doim vaqtingiz bo'ladi.

Qalbingizda yaxshi yoki yomon voqealarga qarshi doimo shifo bergan qo'l sanaladi bunda hamfikirmiz. Dushmanlaridan moddiy yoki ma'naviy zarar ko'r-gan, aziyat chekkanning tasallisi ham so'zsiz Allohdir. Yomonliklarga yaxshilik bilan javob berganning esa sohibi Allohdir.

Sizni o'tmishga ko'mmagan insonlaringiz uchun hech o'zingizni o'tmishga ko'mdingizmi? Bunday holat menda ko'p bo'sdi, shuning uchun doim o'z ichimga ko'mildim. Salomini mendan ayaganlar uchun o'z salomimni berdim.

Men doim boshqalar uchun yashabman, buni ortiq yashay olmaganimda bildim. Boshqasiga nafas bo'lganlar nafassiz qolar ekan. Bir marotaba bo'lsa-da, o'zimga oshiqmabman, buni boshqalarni deb charchaganimda tushundim. Men o'z haqqimni juda ko'p yebman, men haqimda birgina yaxshi narsani o'ylamaganlar uchun. Inson yolg'iz qolib o'ylaganida boshqa insonlar uchun yiqliganini fahmlar ekan.

Hayot yoqa suyaklarimda

Yarim kechasi „Oqshomlari yomg'ir nega bu qadar yog'adi?” deyishdan voz kechib, yomg'irni aqldan ozdirish uchun bir stakan suv sepganlarning tarafida-miz endi. Serotonin sepyapman dunyoga barmoq uch-larimdan va boqishlarimdan.

„Ancha so'nggi paromlar endigina qirg'oqqa yaqin-lashayotganda yo'lga tushadilarmi?” deya isyon qilish-ning mashmashasi endi dushmanning boshiga meros. Mening ichimdagи bolalar doim bir ovozda baqiradi, ayni damlarda: „Hayotga o'rganib qolmang”.

Biror nima yarim chala qolgan bo'lsa, uni o'sha yerda qoldirgan menman. Men uchun kecha yashagan kunimdek uzoq, hech narsa haqida havotirlanmay-man.

Yarim qolishi kerak bo'lgan narsalar yarim qolsin, avvalo, bir nimalardan voz kechib ko'nglimizning qa-yerda ekanligini bilaylik. Uni qidiraylik. Ko'ksimizdan emas, uyimizning tor ko'chalaridan qidiraylik. Ulug' va buyuk bo'lgan ko'chalar hammaga umid beradi. Aslida inson tor va qorong'i ko'chalarda o'zini topadi. Chunki bu hayotda hech kim oynadagi o'ziga o'xshamaydi.

O'zingizni seving, o'zingizning hayotingiz uchun ham seving. Kechalari o'zingizga allalar aytib seving. Toshlarning ustidan sakrayotib, yugurayotib seving.

Dunyoga she'rlar ayta hayqirar ekansiz, seving shaharning ustini qorong'ilik qoplaganda.

Qayg'u bilan tutqun qoldiradigan insonlarning og'ir bir hidi bo'ladi, so'roq ishoratlari bilan sizni charchatgan. O'z hayotizingizni mahv qilishga o'zingiz mammuniyat bilan tashabbus ko'rsatib qo'y mang. Inson yashaganlari bilan ulg'ayadi, yashatganlari bilan ko'payadi. Siz loyiq bo'sangiz ham umid bilan yashashning mazasini qay darajada yengil ekanligini biloqlaysiz. Uni qidiring, uni toping va „Juda afsusda man desam yolg'on bo'ladi hayot“ deng, so'ng qah-qahalar otib undan uzoqlashing.

Insonning hayotga bo'lgan rishtasi o'z-o'zi bilan qurban samimiyatidek bo'ladi. Avval sevinchdan oyoqlari uzilgan bir boladek qayerga qadam qo'yaningizni unutasiz.

Ko'pincha bir gul bilan mukammalman, yam-yashil bir bog'dagi so'nggi gul bilan. Mening ismim xur-sandchilikdir, qah-qahalarim bezovta qilmaydi. Balki hiyla bilan hayotga qarashi yurganligim sababli siz bu hayotda eng ko'p o'zimga oshiqligimni bilmassiz. Chunki hech kim men bilan birga o'tirib yig'lamasligini bilaman. Singan sochlaringa va qonagan yaramga chora qidirmaydilar.

Yelkam silansa, balki sabrning oxiriga kelgan bir tasbeh bo'larman, to'qson to'qqiz parchamdan to'rt taraqfa qo'shiqlar yoyiladi. Ularni ham men to'playman.

Bu sahifa biroz ko'z yoshga to'la, yashashdan huddi „Yetar, to'yib ketdim!“ deyish gunohdeklar.

Bizning oramizda hech kim bilan ishonchga bo'lgan muammomiz yo'q. Biror narsa muammo bo'lishi uchun avval u mavjud bo'lishi kerak albatta. Bizning

umiddan va sevgidan boshqa hech narsaga ishonchimiz yo'q.

Bir shamolning kuchi tufayli uyasi yarim qolgan qaldirg'ochdek bir nima qilishdan, uni baxtli intihoga yetkazish uchun va kelajak orzularni qurishdan boshqa yo'limiz yo'q. Oyoq tirab olish ham boshdan oyoq hayotning o'zi emasmidi?

Mening ismim So'ngul, o'sha yashil bog'da uzilishga jasorat qilolmagan so'nggi gul.

Bir tarafim shoir, boshqa tarafim she'r...

Sevgiga maftun, sevgiga doir hamma narsaga oshiq bir so'nggi gul...

Sevgining davolovchi xislatiga tutingan so'nggi bir gul...

Hayotga doir kurashlarda g'olib kelishim shundadir.

Shundandir shuncha mavhumlik ichida sevgiga tutinganim uchun shifo topganim.

Men hatto so'lg'in gullarga ham suv quydim, shundandir bu nonko'rliklarning meni so'litiб yuborishi

O'zimni yashatsam-da, boshqalarning meni so'ldirishiga yo'l qo'yganim uchun ham o'zimdan jahlim chiqyapti. Shundandir ortiq yaralarimni o'rashim, yilganda qayta turishni istamasligim.

Naqadar harakat qilsam-da, bunga javoban hatto kichik bir sevgi ham berilmadi. Siz ruhingizni fido qilgan insonlar hatto tabassumini ham sizga sarflamaydi, o'sha onda siz sarflanganingizni anglab yetasiz. Ko'r-satilgan harakatga javob: „Iltimos meni sev"dir.

Aslida butun harakatimiz shundan. Sevgini o'zidan boshlamagan avval sevgisiz qoladi, keyin sevgini yanglish insonlarga ko'rsatib ulardan sevgi kutadi. Naqadar harakat qilsangiz ham qilgan birgina harakatingizda buning qarshiligi nafrat bo'ladi. Sevgini qo'-ying, siz olgan nafrat bilan kelgan yo'lingizga qaytib ketasiz.

Sevgiga ishonganning boshiga hech dard tushadimi?

Mutlaqo boshingizga yaxshi kunlar keladi. Yana sevganning erishgan go'zalliklari ko'payadi. Koshki ko'proq sevgi musobaqasida bo'lsaydik. Yo'lingiz sabr qilgan, voz kechmagan sevgining kuchiga ishonganlar-ga ochilsin.

O'z qadringizni, o'z qiymatingizni, avvalo, o'zingiz biladigan inson bo'ling. Noumidlik chuquridan butun harakatlariningga qaramay chiqmasligingiz uchun oyoq tirab oladigan, sizni baxtsizlik sari yetaklaydigان insonlar, albatta, topiladi, ammo siz tushkunlikka tushmang. Sizni yoqtirgan va qadrlagan insonlarning yoni to'g'ri joy ekanligini biling va siz ularning haqiqiyligiga, hatto salbiy tuyg'ulari yo'qligiga ishonch hosil qilgan kishilar bilan do'stlashing. Siz uchun to'g'-ri bo'lmanган yo'llardан mumkin qadar uzoq yuring.

Naqadar jahlingiz chiqsa ham, naqadar ranjisan-giz ham hech kimni haqoratlamaнг va ichingizda nafarat saqlamang; hisob so'ramang, qilganining badalini to'latish degan fikrga yopishib olmang. Yomon munosabatlardan uzoq turing. Balki, o'sha insonlar sizning ko'zingizda dunyoning eng yomon insonlari bo'lib ko'rinarlar, ammo kimning qadri kim uchun qancha ekanligini biladigan bor, unutmang va o'sha bilganga sig'i-ning.

Inson bo'lishning fazilatlariga yarashadigan darajada sevgining tamoyillariga sig'inib yashashda davom eting. Yechilmagan muammolaringizni o'sha onga qoldiring va ularni kelajakka tashimang. Unutmang bir muammoni yoki boror kishini orqangizda qoldirishingiz, muammoning yechimi bo'lmaydi yoki uni yaxshi ko'rmaysiz degani emas. Bir nimalarni ortingizda qoldirishingiz sizga yaxshiligi tegmagan narsalar dan uzoq turish deganidir. Buni idrok qilish unchalik ham mushkul emas.

Victor Hugo aytganidek: „O'z joyini vaqtida tark etish haqiqiy yetuklikdir. Faqatgina ojizlar qolish uchun oyoq tiraydilar”. Shu sababdan beradigan qarorlaringizni yaxshilab o'ylab yetuklik bilan qaror bering, muammolarni ortingizda qoldiring va hayotni seving. Qalbingizni toliqtiradigan narsalarni kelajakka tashimang. Qizg'anish, qiyoslash, noo'rin o'ylashning bergen charchog'i, siz xohlagan shaklga kirish, ko'rko'rona biror narsalarga mutbalo bo'lish, bog'lanish-dek tuyg'ularingiz bo'lsa ularni tark etish uchun choralar qidiring.

Unutmang, doimo bo'lib o'tganlarga boshingizni og'ritaversangiz, o'tmish va kelajakni kavlayversangiz bugunni yo'qotib, hayotning go'zalligini ko'rolmay, sevishdan voz kechasiz. Holbuki, tevarak-atrofda hamma narsa sevishga loyiq go'zallikka ega. Yetar, ularga qarashni biling.

**Jarohatlagan insondan malham
kutilmas ekan.
Buni kech tushundim**

Ulg'aydim deyapman-u, lekin har safar o'zimni bir xil halqaning ichida topyapman. Azoblar bilan butunlashish shunday narsamikin. Sizni baxtga begonadek his qildiradi.

Ortiq ichimga o'tirgan qayg'ularni quvishga ham iymanyapman. Men menga yomon his qildirgan insondan uzoqlashmasdim. Uzoqlashmasdan nima ham qilar-dim? Men ulardan uzoqlashmasam o'zimdan uzoqlashardim. Va men o'zimdan ketsam hech kim meni ortga qaytarmaydi. Ovora ham bo'lismasdi, ular uchun harakat qilganlarim uchun ham hatto. Falokatlarga ko'z yumganlarim, ortida falokatlar qoldirdi. Jarohatlagandan malham kutilmas ekan. Buni kech tushundim.

Ba'zan yarim yo'lda qolgandek bo'lamiz, biz havas bilan yurgan o'sha yo'ldan qanday qilib havas parchalari bilan ortga qaytaman deya o'ylagan paytlarimizda. Va takror-takror bir xil yo'lda qolgan paytlar...

Vaqt bilan yo'q bo'lib borayotgan insonga aylanasiz, etingiz bilan suyagingiz bor, ammo siz yo'qsiz. Bo'shliqlar bilan kurashasiz. Har safar qozondim deb o'ylab o'zingizni yaralab qo'yasiz.

Va o'zgarasiz...

Avval voqealarga bo'lgan munosabatingiz o'zgara-di, siz yashagan voqealar o'zgaradi, reaksiyalaringiz, mimikalaringiz o'zgaradi, bir onda oldingidek joningiz azoblanmayotganini sezasiz. Kutilmaganda o'zargani-gizni his qilasiz, ammo shu bilan birga vaqtning siz-dan nimalar o'g'irlaganini his qilasiz. Nimalar olgani-ni va qaytarib bermaganini.

*Ilgarilari boshqa insonlarning qarorlari bilan
harakat qilardingiz,
Endi esa o'zgarish muddatidan so'ng siz
kiradigan har bir yo'l
sizning qaroringiz bo'ladi. Aynan mana shuning
uchun oldingidek ranjimayapsiz.*

Inson sog'inganida naqadar ranjiganini unutadi

Insonlarni hayotimdan tez chiqara olmayman. Qayta-qayta ranjigan bo'lsam ham sog'inyapman. Juda sog'inyapman. Inson sog'inganida naqadar ranjiganini unutadi.

Ko'ngil eshigimdan kuzatib qo'ygan hammaga eshik tirqichidan necha marotaba qaradim. Qandaylar, baxtli bo'lishdimi deb qiziqdim. Baxtli bo'lishsin, lekin menden endi uzoq turishsin. Meni muammoga soladigan insonlarni sog'insam ham bir muddatdan keyin hayotimga kirgazmayman. Bir marotaba men o'chira olmagan narsalarni aloqador bo'lмаган bir vaqtدا o'chirib oldimga qarayapman.

Ularga ko'ra kichik sabablar tufayli ularni hayotimdan chiqardim, ular ham haq, katta xafagarchilik-larga ovozingizni chiqarmaganingizda boshqa sabablar muhim deb hisoblanmaydi. O'sha nuqtagacha juda ko'p narsaga chidadim. Ichimda necha marotaba ularni haqli sanadim. Ko'p kurashdim, ular bermagan mehr uchun. Ancha vaqtdan keyin tushunish yetmasligini angladim, tushunganlarimni hayotga tatbiq qilishim kerak ekan.

Yo qabul qilishim, yoki ketishim kerak edi. Ko'pincha ketishni tanladim. Chunki qolish, ortga qaytish edi. Ortiqcha ranjish va ranjigan sari o'zgarish edi. Ma'sumlikni yo'qotish edi.

***Inson qurigan tuproqda
takror gullay olmaydi***

Qachon to'lib-toshsam, yuragimni ezgan toshlarni ko'z yoshlarim orasidan terib olaman

Hech bir yo'lda yoddan yurishni istamayman. Hech kimni ortidan yugurishni xohlamayapman. Men endi sokinlik tarafdoriman. Keraksiz tortishmalar e'tiborimni tortmayapti. O'zimni soatlab tushuntirmayapman, hech kimni qayta-qaytadan farqli dunyoqarash bilan qarashlariga harakat qilmayapman.

Yengillashib o'z yukimdan xalos bo'lishni va shu qadar o'yashni istayman. Bajarilgan, bajarilmagan hamma narsadan ma'no topish, o'yash insonni erta qaritadi. Siz payqamasingizdan hayot sizdan oldin yashirib qo'yanlariningizni oladi. Inson yashar ekan payqamaydi, ammo bir muncha vaqt o'tib berkitgan narsalaringizni topa olmaysiz. Qalbingizning qaysi xonasiga qo'yaningizni unutasiz.

Keyin hayotning sizdan olgan narsalaridan bexabar qidirishda davom etasiz. Shuning uchun ham ba'zilarga yaxshi qol deyishni istadim. Men, hayotning menga bergenlarini himoya qilishni xohlayman. Vaqt tez o'tyapti, ammo ba'zi onlar o'tmaydi.

Insonlarning tez o'zgargan fikrlari meni uzoqlarga itarib yubordi. O'yash uchun ko'p vaqtim bo'ldi, hamma eng avval o'zini o'yashini tushunib yetdim.

O'zimni eslaganimda, o'zligimni yo'qotganimni angladim.

Yolg'iz o'zim yaralarimni bog'ladim, hech kim jarohatlagan yaralari uchun o'zini aybdor his qilmaydi. Harakatsiz qolganda aqlimga cho'kkani kechani ug'otdim. Yugurdim, juda ko'p yugurdim, ammo qachon orqamga qaraydigan bo'lsam bir qadam ham siljimaganimni ko'rdim. Inson o'ziga yuk bo'lgan xafagarchiliklarini yuragidan otmagunicha oldinga qadam bosolmaydi. Oldinga qarab yurish yugurish emas ekan.

Hayot hali ham tabassum qilmoqda

Hayotda hamma narsa men istaganimdek bo'lmasa ham qo'limda bo'lgan narsalar bilan band bo'ldim. Hayot hali ham tabassum qilmoqda. Ora-sira meni qu-choqlayapti. Nima bo'lsa, bo'lsin ijobiy qarashga ahd qildim. Yaxshi insonlar shunday qilishar emish; yaxshi bo'lib qolish uchun bu kurashni qozonish niyatim bor.

Hech kimning meni pastga tortishiga yo'l qo'y mayman. Fikrlashi buzuq bo'lgan insonlarning muhokamalari bilan shakllanmayapman. Insonlarning zehnidagi men emasman, ularning fikrlariga qo'shilgan menman. Har doim barchasi go'zal bo'lmaydi, hayot doim ham go'zal emas, balki qushlar charchagandir.

Bundan-da go'zal kunlarim bo'ldi, bo'lmasa, e'tibor bermadim. Charchadim, juda charchadim, balki hayotni ikki hovuchimning orasiga olib bir qog'ozdekk g'ijimlashni xohladim, lekin yuragim tinchlanganida atrofimga tabassum qildim. Tabassum qilish azoblar ni aritadi...

Bu noaniqlikni bilaman

Bir chiqish yo'li, ammo qayerga chiqishi hech aniq emas. Ustiga-ustak jimitlik hech huzur bermadi men-ga. Ruhim sanchib og'riyotganini his qilyapman. Bu, jon yonishi bilan teng emas. Azob chekishning bir po-g'ona ustki saviyasi. Dard insonni harakatga tushiradi, ruhingizning sanchib og'rishi esa sizni hayotga qarshi sekin-sekin cho'ktiradi.

Ruhingiz og'rishni boshlaganida ishlar o'zgaradi. Aqlingizda tarqoq fikrlar birma-bir ko'zlariningizdan tu-shadi, yagona bir farq, endi yig'lashga ham holingiz bo'lmaydi.

Ruhingiz sanchib og'rishni boshlaganida sizni siz qilgan yaxshi taraflarini dunyoga keltirasiz. O'zingizni qaytadan dunyoga keltirasiz aslida...

Yangi boshlang'ichlarga salom...

S O' N G U L U N S A L

Yaralangan joyingizdan gullaysiz

Bosh muharrir M. Nishonboyeva

Dizayner rassom A. Hikmatov

Musahhih A. Yunusov

Kompyuterda sahifalovchi Sh. Axrorova

Nashriyot litsenziya AA № 2549. 28.03.2022

Toshkent shahar, Chilonzor tumani,

Bunyodkor ko'chasi, 44A-uy

Bosishga ruxsat etildi: 03.03.2023. Bichimi: 84×108 $\frac{1}{32}$.

Ofset bosma. «Cambria» garniturasi.

Bosma tabog'i: 08. Adadi: 3000. Buyurtma: 23-05

“Dizayn-Print“ MChJ O‘IChK bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: 100054. Toshkent shahar,

Cho'pon ota ko'chasi, 28-a uy.

“Xasanov Farxod“ YTTda muqovalandi.

Manzil: 100054. Toshkent shahar,

Cho'pon ota ko'chasi, 28-a uy.